

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Dariy tilida sinonim affikslar
5220100-filologiya**

Bajardi: filologiya (sharq tillari)

ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Abdiyev Rajabboy Axmedovich

Ilmiy rahbar: “Eron-afg‘on filologiyasi”

kafedrasi dotsenti, f.f.n.X.Z.Alimova_____

Ishda dariy tilidagi ot va sifat yasovchi sinonim affikslarga, affiksal morfemalardagi sinonimiya hodisasining o‘zaro farqli tomonlariga to‘xtalinadi, dariy tilidagi ot va sifat yasovchi sinonim affikslar miqdori aniqlanadi, sinonimik qatorlar tahlil qilinadi

Toshkent – 2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Sharq filologiyasi va falsafa”
Fakulteti dekani
f.f.n., dotsent J.T.Ziyamuhamedov

“ ” 2012-yil

“Eron-afgon filologiyasi”
kafedrası mudiri f.f.n., dotsent
X.Z.Alimova

“ ” 2012-yil

MUNDARIJA:

KIRISH

I BOB

DARIY TILI OT YASALISHIDA AFFIKSAL SINONIMIYA

- 1.1. Shaxs oti yasovchi sinonim affikslar
- 1.2. O‘rin-joy oti yasovchi sinonim affikslar
- 1.3. Narsa-buyum oti yasovchi sinonim affikslar
- 1.4. Mavhum ot yasovchi sinonim affikslar

II BOB

DARIY TILI SIFAT YASALISHIDA AFFIKSAL SINONIMIYA

- 2.1. Asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni bildiruvchi sifat yasovchi prefikslar
- 2.2. Asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiruvchi sifat yasovchi sinonim suffikslar
- 2.3. Sinonim affikslarning statistik tahlili

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

*Har bir millat o'z tili bilan,
har bir til o'z adabiyoti bilan tirikdir.*
(Mahmud Tarziy)

Darhaqiqat, buyuk afg'on ma'rifatparvari ta'kidlaganidek, hech bir millatni tilsiz yoki adabiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Dunyoda 180 dan ortiq mamlakat bo'lsa, qariyb ularning barchasi o'z davlat tiliga ega. Yurtimiz mustaqillikka erishgan ilk yillardanoq ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta e'tibor berila boshlandi. Buni biz bevosita Prezidentimiz I.A.Karimov olib borayotgan siyosatning asosiy fundamental xususiyatlaridan biri sifatida baholashimiz mumkin. Mustaqillikka erishgan har bir davlat uchun eng asosiy maqsad bu – jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallash masalasidir. Shu o'rinda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya bilan birgalikda xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu biz yoshlarga berilayotgan eng katta e'tibordir. Shu bois, biz yoshlar ham mana shu imkoniyatlardan foydalanib, xorijiy tillarni puxta o'rganib, xususan, o'zimiz o'rganayotgan sharq tilini mukammal egallab, ularni yurtimiz madaniyati, uning o'lmas qadriyatlari, o'ziga xos an'analari bilan tanishtirib, yurtimizning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga ko'maklashib, uning taraqqiy etishiga o'z hissamizni qo'shish biz yoshlarning vatan oldidagi, xalqimiz oldidagi muqaddas burchimizdir!

Mavzuning dolzarbligi. So'z yasalishi, morfemika bahslari „Dariy tili“ kursining mustaqil bahslari sifatida kiritilgan bo'lishiga qaramay, ularni o'rganish va o'rgatishga oid maxsus mukammal darslik va qo'llanmalar yaratilganicha yo'q. Chunki dariy tili morfemikasiga doir ko'pgina muammolar hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois, mazkur qismlarni o'rganishda biz – talabalar nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdamiz. Bu, ayniqsa, dariy tilidagi sinonim affikslarni tahlil va tavsif etishda yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Dariy tilida bir qancha sinonim affikslar mavjud. Lekin biz amaliy mashg'ulotlarda, grammatik tahlil jarayonida, mana shu sinonim affikslarni bir-biridan farqlay olmay qiynalamiz. Dariy tilida bu mavzu umuman tadqiq etilmagani bois, mavjud qo'llanmalarda affiksal sinonimiya haqida umumiy va nihoyatda qisqa ma'lumot berish bilan cheklaniladi. Holbuki, dariy tilidagi har bir sinonim affiksning tabiatini bilish ulardan har birining kelib chiqish sababini, ma'nodagi farqini aniq belgilab olishni taqozo qiladi. Zero, bunday qiyoslash so'z yasash tahlili, morfem tahlil, etimologik tahlil, so'z turkumlari tahlilini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Dariy tilida so'z yasash usullari, ularning so'z turkumlari bo'yicha tasnifi L.N. Kiselevaning “Очерки по лексикологии и языка дари” (M., 1973), “Язык дари Афганистана” (M., 1985) va Ravon Farhodiyning “Разговорный фарси в Афганистане” (M., 1974) monografiyalari hamda M.N. Neghat Saidiyning “دستور زبان معاصر دری” (Dastur-e zabân-e mo'âser-e dariy) (Kobul, 1969) kitobida qisman o'rganilgan. Ko'rsatilgan asarlarda affiksatsiya so'z yasashning boshqa usullariga nisbatan kengroq yoritilgan. Biroq dariy tilida affikslar sinonimiyasi monografik planda tadqiq

etilgan emas. Shu jihatdan quyidagi tadqiqot mazkur yo‘nalishda ilk qadam sanaladi.

Affiksatsiyaning xususiy jihatlarini atroflicha o‘rganmay turib, uning umumiy tomonlari haqida fikr yuritish ham qiyin. Zero, affiksali omonimiya, affiksali sinonimiya, affiksali polisemiya yoppasiga o‘rganish affiksatsiyaning barcha tomonlari bilan aloqador. U yoki bu sinonimik qatorning belgilanishi masalasida, mavjud dalillarga yondashuvda turlicha ilmiy-nazariy talqinlarga duch kelinadiki, bu kabi holning mavjudligi o‘z-o‘zidan masalaning o‘rganish tarixini eslab o‘tishni taqozo etadi.

Bu mavzu dariy tilida yetarlicha o‘rganilmagan. Biroq rus tilshunoslari tomonidan bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirilgan.

O‘zbek tilshunosligida affiksali sinonimiyaga oid dastlabki fikrlar professor A.G‘.G‘ulomovning ishlarida uchraydi. Professor A.G‘.G‘ulomovning doktorlik dissertatsiyasida ilgari surilgan nazariy qarashlar uning so‘nggi yirik ishlaridan hisoblanmish “O‘zbek tili grammatikasi”ning¹ „So‘z yasalishi” va „Morfologiyaga kirish” deb nomlangan boblaridan, „O‘zbek tili morfem lug‘ati”ning², „Ilova” qismidan o‘rin olgan. O‘zbek tilida sinonim affikslarni o‘rganishda Y.Tojiyev³ning xizmatlari beqiyos. Uning ishlaridan o‘zbek tilidagi sinonim affikslar haqida qimmatli ma’lumotlar olishimiz mumkin.

Eron tilshunosligida bu mavzu yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu borada L.S.Peysikov⁴, Yu.A.Rubinchik⁵, T.D.Chxeidzening⁶ ishlaridagi xulosalar asosiy manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Tadqiqot manbayi. Tadqiqotga manba sifatida hozirgi dariy tilida ijod qilayotgan ko‘zga ko‘ringan Rahnavard Zaryob, Spujmay Zaryob, Asadullo Habib kabi adiblarning bir qancha hikoyalari, Abdulla Afg‘oniynavisning 3 jildli “افغان لغات عاميانه فارسي افغانستان” (Afyân qâmus) ikki tilli lug‘ati (Kobul, 1957), “قاموس” (Lôyât-e âmiyâna-ye fârsi-ye âfyânestân) (Kobul, 1959). Shuningdek, internet saytlari orqali oxirgi yillardagi matbuot xabarlaridan foydalanildi.

Ishning maqsad va vazifalari. Ishning maqsadi dariy tilidagi ot va sifat yasovchi sinonim affikslarni atroflicha o‘rganish va tahlil qilishdir. Buning uchun bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Sinonim affikslarni belgilashdagi asosiy mezonlarni aniqlash.
2. Affiksali morfemalardagi sinonimiya hodisasining o‘zaro farqli tomonlariga to‘xtalish.
3. Dariy tilidagi ot va sifat yasovchi sinonim affikslar miqdorini aniqlash.
4. Sinonimik qatorlarni tahlil qilish.
5. Sinonim affikslarning mazmuniy xususiyatlariga to‘xtalish.

Ishdagi ilmiy yangiliklar. Dariy tilidagi barcha ot va sifat yasovchi sinonim affikslar jamlandi va ular sinonimik qatorlarga ajratildi.

¹ O‘zbek tili grammatikasi. - Toshkent: Fan, 1975 T.1.B.

² G‘ulomov A. G‘., Tixonov N., Qo‘ng‘urov R: -O‘zbek tili morfem lug‘ati.-Toshkent: O‘qituvchi, 1977.

³ Bu haqda qarang. Tojiyev Y. O‘zbek tilida affiksali sinonimiya. T.:ToshDU, 1981.

⁴ Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд-во МГУ, 1973.

⁵ Рубинчик. Ю. А. Современный персидский язык. -М., 1960.

⁶ Чхейдзе. Т.Д. Именное словообразование в персидском языке.-Тбилиси, 1969.

Ishning amaliy ahamiyati. Dariy tilidagi affiksali sinonimiyaning o'rganilishi kelgusida qilinadigan ishlar uchun zamin hozirlaydi. Bu ish foydalanuvchiga dariy tilidagi affikslarning sinonimik tabiati bilan tanishish, u yoki bu so'zni har jihatdan tahlil qilish, tarkibida sinonim qo'shimchalarni saqlagan so'z va so'z shakllarining nima sababdan bir xil ma'nolarni anglatishi kabi tushunchalarni o'zlashtirish, eng muhimi, sinonim affikslarni to'g'ri tavsiflash imkonini beradi. Grammatik tahlilning barcha turlarini o'rganishda, sinonim affikslarni ajrata bilish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bu ish sinonim affikslarni ajratishda foydalanuvchiga qulayliklar tug'diradi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi (qisqacha – BMI) kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Kirish qismida BMI to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Birinchi bobda sinonim affikslarni belgilash mezonlariga, shuningdek, til birliklarining ma'noviy o'xshashligiga hamda ot yasovchi affikslar sinonimiyasining o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tiladi. Ikkinchi bobda esa dariy tilidagi sifat yasovchi sinonim affikslar, ularning tiplari, sinonim affikslarning semantik xususiyatlari, ya'ni funksional-semantik, leksik-grammatik xususiyatlari hamda ularning statistik tahlili ko'rib chiqiladi. Xulosa qismida BMIning mazmunidan kelib chiqqan holda, asosiy xulosalar keltirib o'tilgan. Ish oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Dariy tilida sinonim affikslarni belgilash mezonlari

So'zlardagi kabi affikslarda ham ma'no jihatidan bir-biriga yaqinlik, bir-birini qoplash, almashtira olish, ko'p ma'nolilik, omonimlik va antonimlik kabi xususiyatlar mavjud. Shuningdek, affikslar ham boshqa tillardan o'zlasha oladi (bu o'rinda so'z yasovchilar nazarda tutilmoqda). Bu esa affikslarda so'zlardagi kabi o'zaro sinonimlik xususiyatlarining mavjudligini va buning uzoq taraqqiyotga ega ekanligini ko'rsatadi. Affikslardagi bunday xususiyatlar rus tilshunosligida anchagina ishlarning tekshirish obyekti bo'lgan⁷.

Bir o'zakka har xil so'z yasovchi yoki shakl yasovchi affikslar qo'shib kelishidan vujudga kelgan sinonimiya hosisasi "affikslar sinonimiyasi" deyiladi. Affikslarning sinonimik munosabati, agar ular so'z yasovchilar bo'lsa, so'z yasalishi bahsida, agar shakl yasovchilar bo'lsa, morfologiyada o'rganiladi. Ishda ot va sifat yasovchi affikslar sinonimiyasi ko'rib chiqilgan. Qolaversa, shakl yasovchi affikslarning bir tildan ikkinchi tilga o'tmasligi yoki nihoyatda kam o'tishi e'tiborga olinsa, so'z yasovchi va shakl yasovchi sinonim affikslar tasnifi o'zaro farqlanishini anglash qiyin emas.

Affikslar sinonimiyasi ham leksik sinonimlar kabi o'zaro ma'no jihatidan teng kelishlikka asoslanadi. Sinonimik munosabatga kirishuvchi affikslarning hammasi ham asosan polisemantik affikslar. Ular ham shakliga ko'ra farqlanadi, tarixan boshqa-boshqa affikslar hisoblanadi. Shuningdek, affikslar sinonimiyasida ham ularning sinonim ekanligini ko'rsatuvchi amaliy mezon "biri o'rnida ikkinchisining qo'llanishi" prinsipidir.

⁷ Bu haqda qarang. Tojiyev Y. O'zbek tilida affiksali sinonimiya. T.:ToshDU, 1981

Affikslarning o'zaro sinonimik munosabatga kirishuvida o'ziga xos, ya'ni ularning leksik va sintaktik sinonimlardan farqlab turuvchi zaruriy belgilarini ko'rsatish tadqiqot uchun muhim. Quyida keltirilayotgan xususiyatlarning ko'pchiligi affikslardagi antonimlikni belgilashda ham katta rol o'ynaydi. Bular:

1. Sinonimik munosabati tekshirilayotgan har xil affikslar ma'lum bir belgilangan o'zakka alohida-alohida qo'shib ko'rilishi kerak (birini boshqa o'zakka, ikkinchisini yana boshqa o'zakka qo'shib qiyoslanmaydi).

2. Sinonimik munosabatdagi affikslar qo'shilayotgan so'z (o'zak) ma'lum bir turkumga oid bo'lishi, ma'lum bir grammatik formada turishi shart.

3. Affikslarning fonetik strukturasi o'zakning fonetik strukturasi bilan mos kelishi kerak, ya'ni o'zakdagi tovushlar bilan affiksdagi tovushlarning qo'shilishi shu tilning artikulyatsiya normalariga mos kelishi, fonetik qonunlar doirasida bo'lishi kerak.

4. Sinonim sifatida qiyoslanayotgan affikslar ichida tarixan boshqa tilga mansublari bo'lsa, ular tilga affiks sifatida to'la o'zlashgan bo'lishi kerak.

5. Affikslar qo'shilgan so'z gapda ma'lum bir gap bo'lagi vazifasida kelishi kerak (biri aniqlovchi, biri ega bo'lsa, sinonimiya yo'qoladi).

6. Affiks qo'shilayotgan so'z ma'lum bir ma'nosi bilan ishtirok etishi kerak.

7. Sinonimik munosabati tekshirilayotgan affikslarning ma'no xususiyatlari o'zaklarning ma'no xususiyatlari bilan mos bo'lishi kerak. Jumladan, ser- affiksi ortiqlik ma'nosini bildirsa ham, u predmetda aslida yakka holda mavjud bo'lgan predmetning ortiqligini (ma'lum xususiyatlarga ko'ra) ko'rsata olmaydi. Bu affiks faqat miqdor (son) jihatidan ortiqligini ko'rsata oladi, xolos (konkret tushuncha ifodalovchi so'zlarga qo'shilganda): *sersoch*, *serpul*, *sergo'sht* kabilar mumkin bo'lgan holda, *serburun*, *serog'iz*, *serqo'l* kabilar mumkin emas. Burundor so'zidagi -dor affiksi ortiqlik ma'nosini ifodalaydi. Ammo bu o'rinda u predmetning miqdor jihatidan ortiqligini emas, biror xususiyatga ko'ra (uzun-qisqalik, katta-kichiklik, yo'g'on-ingichkalik, keng-torlik kabi) ortiqligini ifodlaydi. *Sersoch* so'zida ser- affiksi sochning miqdor jihatidan ko'pligini ifodalaydi.

Gapning qanday ma'noda aytilganligi ma'lum bir situatsiyaga ko'ra, so'zning qanday ma'noda ishlatilayotganligi ma'lum bir kontekstga ko'ra aniqlanadigan bo'lsa, affikslar qanday so'zga qo'shilayotganligiga ko'ra aniqlanadi.

Affikslarning o'zaro sinonimik munosabatga kirishuvi uchun tanlangan affikslarni hech bo'lmasa bittasi ko'p ma'noli bo'lishi kerak. Aks holda, ular o'zaro sinonimik munosabatga kirisha olmaydi.

8. Affikslar tarixiy jihatdan boshqa-boshqa affikslar bo'lishi va hozir ham shunday qaralishi kerak.

9. Sinonim sifatida tekshirilayotgan affikslar qo'shib kelgan so'zlar shu affikslar anglatgan ma'noni ifodalashi mumkin bo'lgan so'zlar bilan qo'llanmasligi kerak. Bunday hollarda g'alizlik sodir bo'ladi.

BIRINCHI BOB

DARIY TILI OT YASALISHIDA AFFIKSAL SINONIMIYA

1.1. Shaxs oti yasovchi sinonim affikslar

Ijtimoiy-siyosiy hayotda, fan va texnikada sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar leksikaning boshqa qatlamlari qatori kasb-kor egalari nomlarining ham miqdor jihatdan ortishiga olib kelmoqda. Bu hol shaxs otlarining yasaliş doirasini kengaytirmoqda va turli xil affikslar mahsuldorligini ta'minlamoqda. Ma'lumki, shaxs otlari morfologik tuzilishi va semantik xususiyati jihatdan o'zaro farqlanadigan ikki guruhga ajraladi: 1) shaxsning biror kasb-hunar egasi ekanligini ifodalaydigan shaxs otlari; 2) shaxsning kasb-hunarini bildirmaydigan shaxs otlari. Shu o'rinda rus tilida «имя деятеля» (ingl. agent noun) va «имя лица» (ingl. personal name) terminlari farqlanishini, o'zbek tilida «shaxs oti», «shaxs ma'nosili ot» yoki «shaxs nomi» terminlari aralash ishlatilishini ta'kidlash joiz. Ayni vaqtda ishda har ikki holat uchun «shaxs oti» termini qo'llanilmoqda.

Kasbshunoslikka oid adabiyotlarda qayd etilishicha, kasb-korlar mehnat predmeti belgisiga qarab, asosan, 5 tipga bo'linadi (bular o'z navbatida yanada mayda guruhlarga ajraladi): 1) «shaxs – texnika» tipidagi kasb-kor nomlari: *mashinist, uchuvchi, payvandlovchi, mexanizator*; 2) «shaxs – belgi sistemasi» tipidagi kasb-kor nomlari: *pochtachi, kassir, hisobchi, kartograf*; 3) «shaxs – tabiat» tipidagi kasb-kor nomlari: *paxtakor, chorvador, cho'pon, bog'bon*; 4) «shaxs – inson» tipidagi kasb-kor nomlari: *o'qituvchi, rektor, xaridor, kutubxonachi*; 5) «shaxs – badiiy obraz» tipidagi kasb-kor nomlari: *adabiyotchi, bo'yochi, ashulachi, naqqosh*⁸.

Dariy tilida گر -*gar*, گار -*gâr*, کار -*kâr*, چی -*çi*, بان -*bân* / وان -*wân*, والا -*wâlâ*, -*çi* چى -*çi* suffikslari shaxs oti yasovchilar sanaladi. Bulardan چى -*çi* turkiy va والا -*wâlâ* hindiy tillaridan o'zlashgan. ار -*âr* suffiksi esa hozirgi dariy tilida mahsulsiz yasovchi. Uning kelib chiqishi qadimgi fors tilidagi -*târ*, -*itâr* ga borib taqaladi. Manbalarda bu suffiks o'rta fors tilida mahsuldor, klassik fors tili davrida kammahsul affikslar qatorida keltiriladi⁹. Fors-dariy tillarining hozirgi bosqichida bu suffiks mahsulsiz va uning etimologik tadqiqi muhim ahamiyat kasb etmaydi. Mavjud yasalmalar shaxs oti, harakat-holat oti va sifatlardan iborat: خریدار *xaridâr* “xaridor”, پرستار *parastâr* “sanitar”, “hamshira”, نمودار *nomudâr* 1) “ko'rinarli”, “ko'z ilg'aydigan”, 2) “guvohlik”, “ko'rsatkich”.

Dariy tiliga yevropa tillaridan o'zlashmalar ichida shaxs otlari ham uchraydi: بيولوجست *biôlôjest* “biolog”, تكنالوجست *teknâlôjest* “texnolog”, جيالوجست *jiyâlôjest* – جيولوجست *jiyôlôjest* “geolog”, زوولوجست *zoolojest* “zoolog”, ژورناليست *žurnâlist* “jurnalist”, ناولست *nâwelest* “novellist” kabi. Bunday otlardagi affikslar, odatda, o'zlashgan tildagi leksik morfema bilan birgalikda ishlatiladi. Ularning ayrimlarini

⁸ Bu haqda qarang: Abdiev M.B. O'zbek tilida shaxs nomlarining affiksal usul bilan yasaliş: Fil.f.nomz. ... dis. – Toshkent, 1991. – B. 27-32.

⁹ Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – М.: Наука, 1981. – С. 71-72; Основы иранского языкознания. Новоиранские языки: западная группа, прикаспийские языки. – М.: Наука, 1982. – С. 209.

dariy tilida morfemalarga ajratish imkoni bo'lsa-da, leksikologiya bo'limida ko'rilishi kerak.

Dariy tilida shaxs oti yasovchi suffikslarning har biri X.Z.Alimova tomonidan alohida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari uning tomonidan nashr qilingan 5 ta maqolasida o'z ifodasini topgan¹⁰. Bitiruv malakaviy ishimizda qaytariqqa yo'l qo'yimaslik maqsadida shaxs oti yasovchilarning so'z yasash tiplari qayd qilinmadi. Qolaversa, ishimizning asosiy maqsadi affikslarning o'zaro sinonimik munosabatini tekshirishdan iborat. Shu bois ko'rsatilgan maqolalardagi tadqiqot xulosalari umumlashtirildi va dariy tilida shaxs oti yasovchilar sinonimiyasini belgilash uchun qayta tahlilga tortildi.

گر -gar, گار -gâr, کار -kâr suffikslarining etimologik jihatdan bir bo'lsa-da, hozirgi dariy tili so'z yasashida mahsuldorlik darajasi har xilligi, shuningdek, ularning ishlatilishida ayrim farqlar borligi ko'rsatiladi¹¹.

گر -gar, گار -gâr, کار -kâr shaxs oti yasovchilari o'zaro sinonim bo'lsa-da, aynan bir xil emas. T.D. Chxeydzening yozishicha, گر -gar suffiksi ishtirokidagi yasalmalar shaxslarni asosan mehnat faoliyatiga ko'ra tavsiflaydi. گار -gâr, کار -kâr suffikslari ko'pincha shaxs xarakterini bildiradi, ularning aksariyati sifat ma'nosini kasb etadi¹². Biroq dariy tilining keyingi taraqqiyotida kasb-hunarni bildiruvchi shaxs otlari deyarli کار -kâr suffiksi orqali yasalmogda. Buni کار -kâr yasovchisining کار kâr "ish" so'ziga omonimligi bilan izohlash mumkin. Lug'atlarda کار kâr "ish" so'zi "biror narsani bajaruvchi", "biror narsa bilan shug'ullanuvchi" ma'nosida qo'shma so'zning ikkinchi tarkibiy qismi sifatida ham qayd qilinadi va misol tariqasida گناهکار gonâhkâr "gunohkor", جنایتکار jenâyatkâr "jinoiyatchi", ورزشکار warzeškâr "sportchi", خدمتکار xedmatkâr "xizmatkor" so'zlari keltiriladi¹³.

منتقد ما نقد معیاری را یاد ندارد
آفرینشگر ما نقدپذیری را نیاموخته است
(کتاب بیست – پست های ادبیات افغانستان.htm)

"Bizning tanqidchi tanqid maromini bilmaydi,
Ijodkorimiz tanqid qabul qilishni o'rgatmagan".

...و محققین و جستجوگران ادبیات کشور ما مکلف اند...

"...va mamlakatimizning adabiy tadqiqotchilari va izlanuvchilari burchlidirlar...".

(تاریخ مختصر ادبیات افغانستان.htm/۲۷/دی/۱۳۸۷/۲۰۰۸)

¹⁰ Alimova X. Dariy tilida shaxs oti yasashida mahsulli-mahsulsizlik va so'z yasash imkoniyati (affiksial usul misolida//Eroniy tillarning leksikologiyasi.-Toshkent, 2010.-B.28-39; Значения суффикса چی -či в языке дари // Востоковедение. – Т.: ТашГИИ, 2008. – № 1-2. – С.104-107; Dariy tilida گر -gar suffiksi vositasida yasalgan so'zlarning semantic tasnifi // Eron-afg'on filologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent, 2009. – B.63-71; Dariy tilida بان -bân / وان -wân va والا -wâlâ suffikslarining semantic xususiyatlari// Sharqshunoslik anjumani – Toshkent, 2009. – №2. – B.10-15; Dariy tilida نده -enda suffiksli sifatdoshlarning semantikasi // O'zbek sharqshunosligi: buguni va ertasi. – T.: ToshDSHI, 2010. – B. 82-85.

¹¹ Alimova.X Dariy tilida گر -gar suffiksi vositasida yasalgan so'zlarning semantik tasnifi // Eron-afg'on filologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent, 2009. – B.63-71.

¹² Чхеидзе Т.Д. Именное словообразование в персидском языке.-Тбилиси: Месниереба, 1969. – с.22.

¹³ Alimova.X. Dariy tili shaxs oti yasashida mahsullik mahsulsizlik va so'z yasashi//Eroniy tillarning leksikologiyasi. Tosh.2010.-B.28-39.

درمثنوی او زنان نکوکار و زنان بدکار هردو هستند ، چنان که مردان نکوکار و بدکار نیز هردو هستند.

(داکتر اسد الله حبیب// سیمای زن درآیینۀ حکایتی از مثنوی)

“Uning masnaviysida yaxshi va yomon amalli ayollarning har ikki toifasi bo‘lgani kabi yaxshi va yomon amalli erkaklarning har ikkisi bor”.

Quyidagi jadvallarda گر *-gar*, گار *-gâr*, کار *-kâr* suffikslari ishtirokidagi yasalmalarning modellari orqali ularning valentlik darajasini kuzatish mumkin:

Ot + <i>-gar</i> modeli = 77 ta so‘z	
aniq ot (tub dariy) + <i>-gar</i>	11
aniq ot (o‘zlashma) + <i>-gar</i>	4 (3 [arab.], 1 [evr.])
mavhum ot (tub dariy) + <i>-gar</i>	42
mavhum ot (o‘zlashma) + <i>-gar</i>	20 (19 [arab.], 1 [turk.])
HZN + <i>-gar</i> modeli = 4 ta so‘z	
O‘ZS + <i>-gar</i> modeli = 1 ta so‘z (ریخته گر <i>rêxtagar</i>)	
Sifat + <i>-gar</i> modeli = 1 ta so‘z (روشنگر <i>rôšangar</i>)	

Fe‘l negizi + <i>-gâr</i> modeli = 10 ta so‘z	
HZN + <i>-gâr</i>	4
O‘ZN + <i>-gâr</i>	6
Ot + <i>-gâr</i> = 5 ta so‘z	
mavhum ot (tub dariy) + <i>-gâr</i>	2
mavhum ot (o‘zlashma) + <i>-gâr</i>	3 [arab.]

Ot + <i>-kâr</i> modeli = 66 ta so‘z	
aniq ot (tub dariy) + <i>-kâr</i>	20
aniq ot (o‘zlashma) + <i>-kâr</i>	18 (3 [arab.], 15 [evr.])
mavhum ot (tub dariy) + <i>-kâr</i>	5
mavhum ot (o‘zlashma) + <i>-kâr</i>	23 [arab.]
Sifat + <i>-kâr</i> modeli = 18 ta so‘z (16 [dariy], 2 [arab.])	
O‘ZS + <i>-kâr</i> modeli = 4 ta so‘z	
HZN + <i>-kâr</i> modeli = 3 ta so‘z	

Dariy tilining keyingi taraqqiyotida kasb-hunarni bildiruvchi shaxs otlari, shubhasiz, deyarli کار *-kâr* suffiksi orqali yasalmog‘da. Bu, bir tomondan, uning valentlik darajasi (so‘z yasaliş asosi vazifasida aniq va mavhum ot, sifat, sifatdash kela oladi), ikkinchi tomondan, کار *kâr* “ish” so‘ziga omonimligi bilan izohlanadi. کار *-kâr* suffiksi گر *-gar* ga nisbatan universal yasovchi: shaxslarni

nafaqat mehnat faoliyatiga ko‘ra tavsiflaydi, balki asosdan anglashilgan turli mehnat quroli otlaridan shu predmet bilan ish ko‘ruvchi shaxs otlari yasaydi (گر - gar ishtirokida bunday so‘z yasaliş tipi mahsulsiz).

Tadqiqot davomida quyidagi shaxs oti yasovchilari ham o‘rganildi va tegishli xulosalar chiqarildi¹⁴:

-enda suffiksi – mahsuldor yasovchi, hozirgi zamon negiziga qo‘shilib, hozirgi zamon sifatdoshi yasaydi. Biroq hosilalar sifat yoki ot (shaxs oti) ma‘nosini kasb etadi (بافنده *bâfenda* “to‘quvchi”, فروشنده *forôshenda* “sotuvchi”, خواننده *xânenda* “kitobxon”). **-enda** suffiksli hozirgi zamon sifatdoshining fe‘ldan anglashilgan harakatni bajaruvchi, shu harakatga tortiluvchi shaxsni ifodalash xususiyati uning mahsuldorlik darajasini belgilaydi. Masalan:

...وقتی سعدی از سفرش به هند و کاشغر، بلخ و بامیان صحبت میکند، خواننده امروزی را گمراه می سازد...

(سفرنامه ناصر خسرو بلخی.htm)

“...Sa‘diy Hind-u Qoshg‘ar, Balx-u Bomiyonga safari haqida so‘zlayotganda, bugungi kitobxon (o‘quvchi)ni chalg‘itadi...”;

عتیق رحیمی با چهارمین رمان خود، برنده جایزه کنکور - مهم‌ترین جایزه ادبی فرانسه - در سال 2008 شد. این جایزه برای رمان «سنگ صبور» به این نویسنده افغان تعلق گرفت

(فرهنگ داستان نویسی افغانستان.htm)

“2008-yil Atiq Rahimiy o‘zining to‘rtinchi romani bilan Fransiyaning eng muhim sovrini – konkurs mukofoti g‘olibi bo‘ldi. Mukofot «Sabr toshi» romani uchun bu afg‘on yozuvchisiga munosib topildi”.

-či suffiksi turkiy o‘zlashmalar bilan bir qatorda, dariy tilining o‘z va o‘zlashgan so‘zlaridan ham shaxs otlari yasaydi. Biroq u kammahsul – hozirgi vaqtda yangi so‘z yaratishda kam ishtirok etadi. Materiallar tahlili hozirgi dariy tilida **-či** suffiksi ishtirokidagi yasalmalarning ba‘zilari dariy tilining o‘z yasovchilari bilan ham parallel qo‘llanilishini ko‘rsatadi (طبل زن = *tablči* طبل چی), *waylonnawâz* “skripkachi”, ویلون نواز = *wailonči* ویلون چی, *čapâwalgar* “talonchi”, چپاول گر = *čapâwalči* چپاول چی, *qâčâqi* “kontrabandist”, قاچاقی = *qâčâqči* قاچاق چی, *samâwâri* “choyxonachi” سماواری, تماشاچین = *tamâšâbin* تماشاچین = *tamâšâči* تماشاچی. Bu esa tilning keyingi taraqqiyotida **-či** suffiksining kammahsullik darajasi saqlanib qolishini bildiradi.

بدماش شکارچی تفنگش را برداشت و برای شکار پلنگ روانه بیابان شد
(حکایت کرزای و بدماش شکارچی// شبکه اطلاع رسانی افغانستان.htm//
(www.afghanpaper.com)

“Bezori ovchi miltig‘ini oldi va qoplon ovlash uchun biyobonga jo‘nadi”.

¹⁴ Xulosalarni berishda X.Z.Alimovanning dariy tilida shaxs oti yasalişiga bag‘ishlangan maqolalaridan foydalanildi (maqolalar adabiyotlar ro‘yxatida ilova qilinmoqda).

-wân suffiksi hozirgi dariy tilida kammahsul yasovchi va **-bân** وان بان yasalmalarning aksariyati qadimiy leksikadan iborat. Bu suffiks “himoya (muhofaza) qiluvchi”, “qo‘riqllovchi”, “saqllovchi” ma’nosiga ega va bu xususiyati so‘z yasash asosi bilan bog‘liq katta cheklanishni ko‘rsatadi. Asosdan anglashilgan yuk tashish vositasini haydab boruvchi shaxs ma’nosida وان **-wân** suffiksi va ران **-rân** (راندان *rândan* “haydamoq” fe’lining hozirgi zamon negizi) yarimaffiksining parallel qo‘llanilishi kabi holatlar (طياره وان *tayârawân* = طياره ران *tayârarân* “uchuvchi”, “pilot” طياره *tayâra* “samolyot”), وان *karâčiwân* = كراچی وان *karâči* “arava”) mazkur suffiksning so‘z yasash imkoniyatini cheklaydi.

... ومهمانان عزيز کشور ميزبان، بياييد بنگريم که مولانا جلا الدين بلخی ثم رومی که نیز مانند ما، مهاجری بود، چگونه از غربت وطن ساخت

(سخنرانی در ویانا سوم می سال 2003)

“...va mezbon yurtning aziz mehmonlari, kelinglar, nazar tashlaylik...”.

وقتی به مکتب رسیدم نگهبان تازه از خواب بیدار شده بود.

(سپوژمی زیریاب//ترانه استقلال)

“Maktabga yetib borganimda qo‘riqchi endigina uyqudan turgan edi”.

-wâlâ والا suffiksi o‘tgan asrning 60-yillarida sermahsul affikslar qatoriga kiritilgan bo‘lsa-da, hozirgi adabiy dariy tilida kammahsul yasovchi sanaladi. Uning ishtirokidagi yasalmalarning boshqa so‘z yasash vositalari bilan parallel qo‘llanilishi (دکان والا *dokânwâlâ* = دکاندار *dokândâr* “do‘kondor”, “baqqol”, شیروالا *širwâlâ* = صاحب خانه *xâna-wâlâ* *širforôš* “sut sotuvchi”, والا *širwâlâ* = =sâheb(e)xâna “uy sohibi”, “uy egasi”) mazkur suffiksning adabiy tilda so‘z yasash imkoniyatini cheklaydi. Biroq kobul lahjasida **-wâlâ** suffiksi keng qo‘llanilish doirasiga ega. Bu hol suffiksning ma’nolari va valentlik darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi¹⁵.

Dariy tili lug‘at tarkibining yangi-yangi birliklar bilan to‘lib, boyib borishida **-i** suffiksining alohida o‘rni bor: u cheksiz valentlikka ega va bu sifatlarga xos kategorial ma’no bilan izohlanadi. Hozirgi adabiy dariy tilida **-i** suffiksining funktsiya doirasi yanada kengaydi: uning shaxs oti vazifasida qo‘llanilishi faollashdi (غیچکی *gêçaki* “g‘ijjakchi”, بندی *bandi* “asir”, “mahbus”, qo‘llanilishi faollashdi (جوالی *jawâli* “hammol”, “yuk tashuvchi”, برقی *barqi* “elektrik”; “elektromontyor”).

...و با چهره «غیر وابسته به حزب» خویش بیشتر از حزبی‌های شناخته شده، برای حفظ و تحکیم نظام میهنفروشان جان کنده‌اند

(درباره مطلب «الضدان لایجتماعان» از رهنورد زیریاب//پیام زن، 45، مارچ، 1997)

¹⁵ Bu haqda qarang: Dariy tilida **-bân** وان **-wân** va والا **-wâlâ** suffikslarining semantik xususiyatlari // Sharqshunoslar anjumani. – Toshkent, 2009. – №2. – B.10-15.

“...va «partiyaga aloqasi yo‘q» chehralari bilan taniqli partiya a‘zolaridan ham ortiq darajada vatanfurushlarning nizomini himoya qilish va mustahkamlash uchun jon-jahdlari bilan uringanlar”.

...چون اگر افغانستان آرام باشد باید تمام خارجی ها از افغانستان بیرون بروند و او وقت است که خارجی ها بخصوص (آمریکا) بخاطر نقشه های شومی که دارد کامیاب نمی شود

(حکایت کرزای و بدماش شکارچی//شبکه اطلاع رسانی افغانستان/ www.afghanpaper.com)

“...Agar Afg‘oniston tinch bo‘lsa, barcha ajnabiylar Afg‘onistondan chiqib ketishlari kerak, u vaqtda chetelliklar, ayniqsa, Amerika shum niyatlari yo‘lida muvaffaqiyatga erishmaydi”.

1.2. O‘rin-joy oti yasovchi sinonim affikslar

Dariy tilida o‘rin-joy otini yasovchi quyidagi sinonim affikslar mavjud:

lâx - لاخ, *bar* - بر, *san* - شن, *sâr* - سار, *san* - سن, *zâr* - زار, *stân* // *estân* - ستان

Hozirgi dariy tilida o‘rin-joy oti yasovchi *stân* // *estân* (undosh fonemaga tugovchi asosdan keyin) sermahsul affiks hisoblanadi. Affiks pahlaviy tilidagi o‘rin-joy oti yasovchi vazifasini saqlab qolgan. Bu affiks mavhum va aniq otlarga qo‘shiladi:

ستان *kôhestân* “tog‘li joy” (mamalakot) (*kôh* “tog”);

ازبکستان *ozbakestân* “O‘zbekiston” (*ozbak* “o‘zbek”);

قبرستان *qabrestân* “qabrison” (*qabr* “qabr”);

افغانستان *afgânestân* “Afg‘oniston” (*afgân* “afg‘on”);

گلستان *golestân* “gulzor”, *chamanzor* (*gol* “gul”).

از نظر شما چه راه هایی برای تبادل فرهنگی هر چه بیشتر میان ایران و افغانستان وجود دارد؟
(Paywand R. wa S.Zaryaab // گپ مهری شاه حسینی با محمد اعظم رهنورد زیراب)

“Sizning nazaringizda Eron va Afg‘oniston o‘rtasidagi madaniy aloqalarni yanada yaxshilash uchun qanday yo‘llar mavjud?”

O‘rin-joy oti yasovchi *zâr* affiksi o‘rta fors tilida *čâr* ko‘rinishida o‘rin-joy otini yasagan¹⁶. Hozirgi dariy tilda *zâr* kammahsuldir. Hozirgi dariy tilidagi bu affiks o‘rta va yangi fors tillardagi ma‘nosida ishlatiladi. *zâr* affiksi geografik nomlarni yasamaydi:

زار *mêwazâr* “mevazor” (*mêwa* “meva”);

گلزار *golzâr* “gulzor” (*gol* “gul”);

سبزه زار *sabzazâr* “yashil o‘tloq” (*sabza* “yashil”);

گندمزار *gandomzâr* “bug‘doyzor” (*gandom* “bug‘doy”);

از حویلی بر می آید و تاکستان را، گندمزار ها را، مرغها را و گاوها را به خدا میسپارد.

(سپوژمی زیراب//موزه ها در هذیان)

“Hovlidan chiqadi va uzumzorlarni, bug‘doyzorlarni, qushlarni va sigirlarni Xudoga topshiradi”.

چنین واکنش ، در داستان “ گلزار ابراهیم ” ، تألیف علی ابراهیم خان خلیل نیز دیده می شود .

(داکتر اسد الله حبیب//ادبی عبدالقادر بیدل در قلمرو تیوری ادبیات و نقد)

¹⁶ O‘sha kitob. – B. 30.

“Bunday munosabat, Ali Ibrohimxon Xalil yozgan “Ibrohimning gulzori” hikoyasida ham ko‘rinadi”.

O‘rin-joy nomlari quyidagi kammahsul qo‘shimchalar yordamida ham yasaladi: سن -*san*, سار -*sâr*, شن -*šan*, بر -*bar*, لاخ -*lâx*.

P.Horning fikriga ko‘ra -*san* she‘riyatda so‘z boyligining manbayi bo‘lgan¹⁷. U -*san* ni -*stan* ning she‘riyatda hosil bo‘lgan qisqa shakli ekanini ta’kidlaydi.

خارسن *xârsan* “tikonzor”, (خار *xâr* “tikan”);

شورسن *šôrsan* “sho‘rxok yer” (شور *šôr* “sho‘r, tuzli”).

P.Horning fikricha, Avestoda -*sâra* “bosh” ma’nosida uchraydi. U qo‘shma so‘zning ikkinchi qismi sifatida *bosh*, asosiy ma’nolarini beradi. “Bosh” so‘zi bilan leksik aloqasi uzilib, murakkab so‘zning ikkinchi qismi, suffiksga aylangan. سار -*sâr* mavhum va aniq ma’nolarga ega otlarga qo‘shiladi:

سنگسار *sangsâr* -toshloq (سنگ *sang* -tosh);

کوهسار *kôhsâr* -tog‘li joy (کوه *kôh* -tog‘);

شاخسار *šâxsâr* -daraxtzor, chakalakzor, bog‘, (شاخ *šâx* -shox).

که کھسارست یک سر عالم رنگ

جنون آباد آب و آتش و سنگ

(داکتر اسد الله حبیب//ارمغان بیدل از کوهستان بیرات)

“Kuhsor (tog‘li joy) bir rangli olam,
Jununobod suv, olov va toshli joydir”.

شن -*šan* qo‘shimchasi Avestoda *šayana* tarzida qo‘shma so‘zning ikkinchi tarkibi sifatida uchraydi:

Râma, - *šayana* sokin hayot kechiruvchi,

Gava, - *šayana* chorva mollari turadigan joy.

Bugungi kunda گلشن *golšan* “gullar o‘sadigan joy” (گل *gol* “gul”).

Keyingi o‘rin-joy oti yasovchi qo‘shimcha لاخ -*lâx* suffiksidir. Bu qo‘shimcha aniq va mavhum otlarga qo‘shiladi:

دیولاخ *dêwlâx* “devlar makoni” (دیو *dêw* “dev”);

سنگلاخ *sanglâx* “toshloq”, “toshli joy” (سنگ *sang* “tosh”);

رودلاخ *rudlâx* “suvli joy”, (رود *rud* “daryo”);

رودبار *rudbâr* “suvli joy”, (رود *rud* “daryo”).

این همه مثالها از رودبارهای مثنوی و دیوان شمس برود

(داکتر اسد الله حبیب// سایه حکیم سنائی غزنوی)

“Bu hamma misollar Shams devoni va masnaviysidagi suvli joylar haqida ketadi”.

¹⁷ O‘sha kitob 30-b

Ushbu suffiksning kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. P.Hornning fikriga ko‘ra لاخ *-lâx* joy yoki to‘kin-sochin, boy kabi ma’nolarni anglatadi. Lekin mustaqil so‘z sifatida mavjud emas. J.Darmesteterning esa ta’kidlashicha mustaqil so‘z sifatida: لاخ *-lâx* qoya degan ma’noni bildiradi.

Tadqiqotchilar لاخ *-lâx* suffiksini qo‘shma so‘zning ikkinchi qismi vazifasida kelishini ta’kidlab, uni forscha leksik element deb hisoblaydilar. Bundan tashqari لاخ *-lâx* turkiy tildan o‘zlashgan degan fikr ham mavjud¹⁸.

T.A.Chxaidzening fikriga ko‘ra, لاخ *-lâx* qo‘shma so‘zning ikkinchi qismi hisoblanmaydi. Mustaqil so‘z sifatida لاخ *-lâx* fors tilida uchramaydi. B.S.Rastorguyevaning لاخ *-lâx* turkiy tildan kelib chiqqan degan fikri e’tiborga loyiqdir. Turkiy adabiyotda *-lik*, *-liq* ko‘rinishida keng yoyilgan. J.Denyning fikriga ko‘ra yoqut va usmonli turklar tilida *-lâq*: *qishlâq*, *o‘tlâq* “yaylov”, *tarlâq* “maydon” kabi ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, turkiy tilda *lâq* fors tilidagidek ajratilmaydi. Umumiy kelib chiqishi o‘rin-joy otini anglatuvchi qo‘shimchalar guruhiga kiradi (*lik*, *-liq*, *-lan*, *-lin*, *-lâq*, *-laq*, *-lâx*). Bu esa *-lâx* qo‘shimchasini turkiydan kelib chiqqanini tasdiqlaydi.

بار *-bâr* suffiksi suv havzalarga yaqin joylashgan joy, mamlakatni anglatadi. Bu suffiks semantikasi qadimiy eroniy *pâra* “o‘tmoq” so‘ziga borib taqaladi, qadimiy hind tilida *pârâ* “qirg‘oq” ma’nosini bildirgan.

جويبار *jôybâr* “daryo, qitg‘oqlarga boy joy”. جوى *ğuy* “soy”, jilg‘a;

رودبار *rudbâr* “tub joy”, “sersuv”, رود *rud* “daryo”.

بر *-bar* qo‘shimchasi ba’zi geografik joy nomlarida uchraydi va bu qo‘shimcha suvga yaqinlik ma’nosini anglatadi: u

هندبار *hendubâr* -Hindiston – Hind daryosi mamlakati.

1.3. Narsa-buyum oti yasovchi sinonim affikslar

Narsa-buyum oti yasovchi qo‘shimchalardan biri *-a* o‘rta fors tilidagi *-ak* ni o‘zida aks ettiradi. U ot, sifat, taqlidiy so‘z, son va fe’l negizlariga qo‘shilib, narsa-buyum otlarini yasaydi:

پايه *pâya* “poya”, “taglik” (پای *pây* “oyoq”);

دسته *dasta* “dasta”, “sop” (دست *dast* “qo‘l”);

سبز *sabza* “maysa” (سبز *sabz* “yashil”);

تلخه *talxa* “o‘t”, “safro” (تلخ *talx* “achchiq”, “taxir”);

شرشره *šaršara* “sharshara” (شرش *šaršar* “shar-shara suvga oid”);

پنجه *panja* “panja”, “vilka” (پنج *panj* “besh”).

در خان شکرریزان پیر مردی با قبای نم‌دین سیاه پیش آمد و لگام استر او را گرفته پرسید :
«محمد را پایه بالا تر یا بایزید بسطام را ؟»

(مولانا جلال‌الدین محمد)

زرد *zarda* 1) “safro”, 2) “sariq kasalligi”, 3) “shirin palov”, (زرد *zard* “sariq”);

¹⁸ Чхейдзе Т.Д. Именное словообразование в персидском языке. -Тбилиси: Мецниереба, 1969. – с.32.

پیمانہ *paimâna* 1) “sanalmaydigan buyumlar uchun o‘lchov birligi”. 2) “kosa”, “jom”;

تیغہ *tiya* “taroq”, yigiruv mashinasining tarog‘i, dam (تیغ *tiy* “qilichning dami, tig‘i”).

o -a suffiksi fe‘liy asosning ikkinchi qismi sifatida qo‘shma so‘zlarga qo‘shiladi. So‘z yasalihi asosan murakkab bo‘lishi mumkin:

سنگریزہ *sangrêza* “shag‘al” (سنگ *sang* “tosh” va ریز *rêz* esa *rêxtan* “kesmoq” fe‘lining hozirgi zamon negizi).

Hozirgi zamon negiziga qo‘shilib ko‘plab jism va asbob-uskuna nomlarini yasaydi:

پیچہ *pêča* “jingalak soch”, “zulf” (پیچ *pêč*, پیچیدن *pêčidan* “o‘ramoq”, “buramoq” fe‘lining hozirgi zamon negizidir);

رنده *randa* “randa”, “o‘roq” (رند *rand*, رندیدن *randidan* “qirmoq”, randalamoq fe‘lining hozirgi zamon negizidir);

Hozirgi dariy tilida دان *-dân*, دانی *-dâni* otga (ko‘p hollarda aniq otlarga) qo‘shiluvchi sermahsul affiksdir:

نمکدان *namakdân* “tuzliq”, “tuzdon” (نمک *namak* “tuz”);

ناندان *nândân* “non solinadigan idish” (نان *nân* “non”);

شیردان *širdân* “sut idish” (شیر *šir* “sut”);

قلمدان *qalamdân* “qalamdon” (قلمد *qalam* “ruchka”);

گلدان *goldân* “guldon” (گل *gol* “gul”).

قیامت خنده ریزی بر مزار من گل افشان شد ز شور آرزو هر ذره خاکم نمکدان شد.

(دکتور اسد الله حبیب // کانیدیای اکادمیسین)

Hozirgi dariy tilida k -ak/ گک -gak suffiksi aslida otlarning kichraytirish, erkalash shakllarini hosil qiluvchi affikslardan sanaladi:

دخترک *doxtarak* “qizaloq”, “qizcha” (دختر *doxtar* “qiz” (bola)),

گادیگ *gâdigak* “bolalar aravachasi” (گادی *gâdi* “arava”) va sh.k.

Biroq til taraqqiyoti davomida bu suffiksning so‘z yasovchi mavqeyi ham orta bordi. Bu, ayniqsa, terminologiya sohasida yaqqol ko‘zga tashlanadi¹⁹.

ak/ گک -gak suffiksi yangi so‘z yasash uchun ham xizmat qiladi²⁰. So‘z yasalihi asosi vazifasida ot (نجر *naj(j)âr*) “duradgor” → نجرک *naj(j)ârak* “qizilishton”, موی *môy* 1) “soch”; “tuk”, 2) “jun” → مویک *môyak* “chotka(cha)”, sifat (ترش *torš* “nordon” → ترشک *toršak* 1) “shovul” 2) “nordon meva” (masalan, xom olma), تشنه *tašna* “tashna → تشنک *tašnak* “bolalarda” tashna kasalligi), fe‘l negizi (تراش *tarâš* تراشیدن *tarâšidan* “randalamoq”, “tarashlamok” fe‘lining HZN → تراشک *tarâšak* “shaber” (metall buyumlar sirtini tarashlab tekslaydigan asbob), taqlid (tasvir) leksemasi (غیچ *gêč* “g‘ich” → غیچک *gêčak* “g‘ijjak”, فرفر *ferfer* “pir-pir” → فرفرک *ferferak* “pirpirak”; “pildiroq”, “g‘irg‘irak”, “bizbizak”), murakkab asos (شیر *šir* “sut” + چوش *čoš* چوشیدن *čôšidan* “emmoq”, “so‘rmoq” fe‘lining HZN

¹⁹ Bu haqida qarang. Uralov X.U nouchno-texnicheskaya terminologiya sovremennogo yazika dari T

²⁰ Киселева.Л.Н

→ شیرچوشک širčôšak “so‘rg‘ich” (sut ichish uchun), آفتاب âftâb “quyosh”, “oftob” + باران bârân “yomg‘ir” → آفتاب بارانک âftâbbârânak “yoz yomg‘iri” (kun chiqib turganda yoqqan yomg‘ir) kelishi mumkin²¹. L.N. Kiselevaning yozishicha, bu affiks jonli predmet nomlariga qo‘shilganda, aksariyat hollarda otlarning kichraytirish, erkalash shakllarini, jonsiz predmet nomlaridan esa narsa-qurol otlarini yasaydi²²; uning ishitirokida holat-harakat otlari, shuningdek, shaxsga oid belgini bildiruvchi so‘zlar (sifat, biroq shaxs belgisi uchun qo‘llangani sababli ot vazifasida keladi) ham yasaladi:

Asbob-qurol ma’noli otlar:

قلفک *qolfak* “ilgak”; “lo‘kidon”, “zulfin” (قلف *qolf* “qulf”);

چنگک *čangak* “changak”, “ilmoq” (چنگ *čang* 1) “panja”, 2) “tirnoq”, “changel”, 3) “ilmoq”, “ilgak”, “changak”;

خرک *xarak* “eshak”, “chorpoya” (خر *xar* “eshak” (“hayvon”));

دهان پتک *dahânpotok* “tiqin”, “probka”, “po‘kak” (دهان *dahân* “og‘iz”, پت *pot* (biror narsa bilan) “yopilgan”, “bektilgan”).

Ma’lumki, fan-texnikaning rivojlanishi bilan narsalarning soni tobora ortib bormoqda va hozirgi dariy tilida ك -ak/ گک -gak suffiksi ishtirokida asbob-qurol ma’noli texnik tarminlar anchagina miqdorni tashkil etadi:

کنجک *konjak* (tex.) “ugolok” (metall) (کنج *konj* “burchak”);

گوشک *gôšak* “go‘shak” (telefon trubkasi) (گوش *gôš* “quloq”);

کلاهک *kolâgak* – کلاه *kolâh* (tex.) -qalpoqcha (کلاه *kolâh* -qalpoq, bosh kiyim);

میلک *milak* -shtir, tilcha, val (میل *mil* “xivich”, “chiviq”).

Ba’zi yasamalar ham so‘z, ham termin ma’nosini kasb etganligini kuzatish mumkin:

ناخنک *nâxonak* 1) “tirnoqcha”, 2) (muz.) “mediator”, 3) (tex.) “ship”, “vtulka” (ناخن *nâxon* “tirnoq”);

سیخک *sixak* 1) “sixcha”, 2) (tex.) “sterjen”, 3) “soch to‘nog‘ich” (سیخ *six* - six).

ك -ak/ گک -gak suffiksi fe’ning hozirgi zamon negiziga qo‘shilib, “asosdan anglashilgan ish-harakat uchun qo‘llanadigan narsa” ma’noli ot yasaydi va bunday otlar ot yasalishining bir tipini tashkil etadi:

گلتک *γaltak* “katushka”, “g‘altak” (گلت *γalt* – غلتیدن *γaltidan* “dumalamoq”, “g‘iliramoq” fe’linig HZN);

چوشک *čôšak* “so‘rg‘ich” (bolalar) (چوش *čôš* – چوشیدن *čôšidan* “emmoq”, “so‘rmoq” fe’linig HZN);

تراشک *tarâšak* “shaber” (metall buyumlar sirtini tarashlab tekislaydigan asbob) (تراشیدن *tarâšidan* “tarashlamoq”, “randalamoq” fe’linig HZN);

خراشک *xarâšak* “yeryumshatgich” (خراش *xarâš* – خراشیدن *xarâšidan* “timdalamoq”, “(qirib) tarashlamoq” fe’linig HZN).

²¹ Bu haqda qarang. Alimova X. Dariy tilida -ak/-gak suffikslari va so‘z yasash imkoniyati//sharqshunoslar anjumoni,-Toshkent, 2011.-6.-B.3.-11.

²² Киселева.Л.Н.----- с.113

Asos murakkab bo'lishi mumkin:
 چیدن – *čin* “soch”, “tuk”, موی *môy* “mo'ychinak” مویچینک *môyčinak* “termoq” fe'lining HZN);
 پوشیدن – *pôš* “quloq”, گوش *gôš* “quloqchin” گوشپوشک *gôšpôšak* “kiymoq” fe'lining HZN).

1.4. Mavhum ot yasovchi sinonim affikslar

Hozirgi dariy tilida mavhum otlar asosan quyidagi qo'shimchalar yordamida yasaladi: *yat* -یت, *-a*, *-eš*, *-i* یش, ی
-i qo'shimchasi dariy tilida turli tipdagi so'zlarga bevosita qo'shilib, so'z yasashda faol ishtirok etadi.

Fe'liy formadan yasalgan otlar

O'tgan zamon sifatdoshi asosidan yasaladi:

رسیدگی *rasidagi* “nazorat”, “tekshiruv”;
 ایستده گی *istâdagi* “barqarorlik”, “turg'unlik”.

Hozirgi zamon sifatdoshidan:

نویسنده گی *nawisendagi* “yozuvchilik”;

هست bog'lamasidan:

هستی *hasti* “turmush”, “borliq”;

نیستی *nisti* “fano”, “yo'qlik”;

Ikkinchi qismi hozirgi zamon fe'l negizi bo'lgan qo'shma so'zlardan:

خونریزی *xunrêzi* “qon to'kish”, “xunrezlik”.

-i ko'pincha گر-*gar*, کار-*kâr* qo'shimchalari orqali yasalgan kasb-kor otlariga qo'shiladi.

U yoki bu fe'l shaklidan yasalgan yasalmalar mazmun umumiyligi jihatidan bir leksik kategoriyaga tegishlidir:

a) رسیدگی *rasidagi* “nazorat”, “tekshiruv”, (رسیده *rasida*, رسیدن *rasidan* – “yetib bormoq”, “borib yetmoq”);

زده گی *zadagi* “illat” (زده *zada* “pachok”, “pachoqlangan”, “nuqsonga ega”, زادن *zadan* “urmoq”).

b) دنده گی *dawendagi* “yugurish”, “ortiqcha harakat”, “ovoragarchilik” (دوند *dawend*, دویدن *dawidan* “yugurmoq”).

c) نیستی *nisti* “fano”, “yo'qlik” (نیست *nist* “yo'q”, هستی *hasti* “turmush”, “borliq” هست *hast* “bor”, “mavjud”).

d) اندازه گیری *andâzagiri* “o'lchash”, (اندازه *andâza* “o'lchov” + گرفتن *gereftan* fe'lining HZN, گیر *gir*);

خودکشی *xôdkoši* “o'z joniga qasd qilish” (خود *xôd* “o'z” + کش *koš* کشتن *koštan* o'ldirmoq fe'lining HZN);

آوردن *âwar*, یاد آور *yâdâwari* “eshlash” (یاد *yâd* “yod”, “xotira” + آوردن *âwardan* “keltirmoq” fe'lining HZN).

Ba'zida yasama so'z narsa-buyum ma'nosini kasb etadi: شیرینیخوری *širinixori* “lagancha”, “chuqur tarelka”; دستشویی *dastšôyi* “umivalnik”, “qo'lyuvgich” (yuz-qo'l yuvgich).

کاشی کار *kâšikâr* “kafel ishlab chiqarish” (کاشی *kâšikâr* “kafel”, “cherepitsa ustasi”);

telâkâr “zargar”) *telâkâr* “zargar”) *telâkâr* “zargar”);
منا کار *menâkâr* “emal bilan ishlash”, “mozaika bilan ishlash” (منا کار
menâkor “emal ustasi”).

Ko‘p hollarda so‘z yasalishi asosi qo‘shma so‘z bo‘ladi:

فالبین *fâlbini* “fol ochish”) (فالبین *fâlbini* “fol ochish”).

-i suffiksi orqali yasalgan so‘zlar jamlash mazmunini kasb etadi:

معماری *me‘mâri* “me‘morchilik” (معمار *me‘mâr* “me‘mor”, “quruvchi”).

Ko‘p hollarda ushbu qo‘shimcha bilan yasalgan ot holatni bildiradi:

مانده گی *mândagi* “charchoq”, “parishonlik”, (مانده *mânda* “charchagan”).

Hozirgi dariy tilida -i suffiksi shaxs otlariga qo‘shilib, kishilarning faoliyati, jamiyatdagi o‘rnini angalatuvchi mavhum otlar yasaydi:

شاگردی *šâgerdi* “shogirdlik”, “shogirdlik holati” (شاگرد *šâgerd* “shogird”, “o‘quvchi”);

نوکاری *nôkari* “xizmatkorlik” (نوکار *nôkar* “xizmatkor”).

Predmet xususiyatini ifodalovchi mavhum otlar quyidagicha yasaladi:

Sifatlardan: پیری *piri* “qarilik” (پیر *pir* “qari”);

تنبلی *tanbali* “dangasalik” (تنبل *tanbal* “dangasa”);

رعنا *ra‘nai* “noziklik”, “nafislik”, “go‘zallik” (رنا *ra‘na* “go‘zal”, “nafis”).

Qo‘shma sifatlardan:

دلخوشی *delxôši* “xursandlik”, “mamnuniyat” (دلخوش *delxôš* “xursand”, “mamnun”);

سربلندی *sarbelandi* “taniqlilik”, “mashhurlik” (سربلند *sarbeland* “atoqli”, “shuhratli”, “mashhur”).

Perefiksli yasalmalardan:

بیچاره گی *bêçârâgi* “nochorlik”, “baxtsizlik”, “ojizlik” (بیچاره *bêçâra* “ojiz”, “baxtsiz”, “omadsiz”).

Sifatdoshlardan:

ایستاده گی *istâdagi* “doimiylik”, “o‘zgarmaslik”, “pishqlik”, “mahkamlik”

(ایستاده *istâda*, ایستادن *istâdan* “turmoq” fe’lining O‘ZS);

افسردگی *afsordagi* “tushkunlik”, “ma’yuslik” (افسرده *afsorda*, افسردن *afsordan* “bo‘shashmoq”, “lanj bo‘lmoq” fe’lining O‘ZS).

Otlardan (ma’no ko‘chishi natijasida):

سگی *sagi* “pastkashlik”, “mal’unlik”, “yuzsizlik” (سگ *sag* “it”);

گرگی *gorgi* “yirtqichlik”, “vahshiylik”, “ochko‘zlik”, “munofiqlik” (گرگ *gorg* “bo‘ri”);

مردی *mardi* “mardlik”, “botirlik”, “jasurlik”, “olijanoblik” (مرد *mard* “erkak”).

-i suffiksi orqali harakat va belgi-xususiyat bildiruvchi mavhum otlar yasalishi bu so‘z kategoriyalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarini, ularning kelib chiqishi umumiylikini yana bir bor isbotlaydi.

-eš suffiksi pahl. *išn*, hozirgi zamon fe’l negiziga qo‘shilib mavhum harakat otini yasaydi:

آزمایش *âzmâyeš* “sinov” (o‘rt.pahl. *âzmâišn*); آزمودن *âzmudandan* *âzmâ*.

Hozirgi dariy tilida ham qadimgi pahlaviy tilidagidek *-eš* suffiksi bilan yasalgan soʻzlarda harakat natijasini ifodalaydigan holatlar ham uchray turadi: *âfarineš* “maxluq”, “jonivor”, (*âfaridan* “yaratmoq” dan

âfarin);

nomâyeš “namoyish”, “sahna koʻrinishi”, (*nomâ*, *nomudan* “koʻrsatmoq”, ammo *nomâyeš* da harakat jarayoni aniq ifodalangan).

-eš suffiksini qabul qilgan otlardan baʼzilar pahlaviy tilidagidek, jamlash maʼnosini beradi:

pirâyeš “taqinchoq”, “bisot”, “ziynat”. Baʼzan *-eš* suffiksiga ega soʻzlar aniq maʼnoni bildiradi:

xoreš “yemish”, “ovqat” (*xordan* “yemoqdan” *xor*).

Hozirgi dariy tilda baʼzan *-eš* ni olgan soʻzlar, qoʻshma soʻzning bir qismi hisoblanadi. Birinchi qism ot boʻlsa, qoʻshma soʻz ish harakat nomini ifoda etadi:

sarzaneš “haqorat”, “soʻkish”, (*sar* “bosh” + *zaneš*, *zan* “urmoq”).

Kamdan kam hollarda *-eš* ism asoslarga qoʻshiladi:

paydâyeš “paydo boʻlish”, “yuzaga kelish” (*paydâ* “aniq”, “yaqqol”);

rahâyeš “ozod qilish”, *rahâ* “ozod”.

Hozirgi dariy tilda *-eš* mahsulligi chegaralanadi. Oʻrta fors tili bilan taqqoslaganda suffiksni ishlatish darajasi toraymoqda. Bu suffiks kelasi zamon sifatdoshini yasamaydi.

âmêzeš “aralashish”, “qoʻshilish” (harakat natijasini ifodalaydi) “qorishma”. *âmêz* *âmixtan* feʼlining HZN;

pôrseš “soʻrash”, “soʻrov”. *pôrs*, *pôrsidan* “soʻramoq” feʼlining HZN.

• *-a* suffiksini olgan baʼzi soʻzlar harakat nomi maʼnosiga ega emas:

andâza “miqdor”, “meʼyor”, “ulush”, “simmetriya” (*andaz*, *andâztan* “otmoq”, “irgʻitmoq”) *andâzidan* bilan solishtiring “oʻlchamoq”, “boʻlmoq”, “ulashmoq”).

Hozirgi dariy tilida turli maʼnolarni ifodalovchi ism asosdan yasalgan mavhum otlar uchraydi.

Hozirgi dariy tilida • *-a* affiksi yordamida sonlardan otlar yasaladi. Bu suffiks mavhum-jamlash maʼnosini bildiradi:

hazâra “ming yillik” (*hazâr* “ming”);

hafta “hafta” (*haft* “yetti”).

Hozirgi dariy tilida mavhum ot *-yat* affiksi bilan ham yasaladi. Bu qoʻshimcha asosan oʻzlashma soʻzlarda uchraydi:

bašariyat “odamzod”, “kishilik” (*bašar* “odam”);

horriyat “ozodlik” (*hor* “ozod”).

IKKINCHI BOB

DARIY TILI SIFAT YASALISHIDA AFFIKSAL SINONIMIYA

2.1. Asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni bildiruvchi sifat yasovchi prefikslar

Dariy tilida o‘zaro sinonim bo‘lib keluvchi affikslar ichida, ayniqsa, otlardan sifat yasovchi affikslar sinonimiyasi juda xarakterli. Chunki otdan sifat yasovchi affikslarning bir qismi o‘zakdan anglashilgan ma’noga ega ekanlikni ifodalab, o‘zaro sinonim bo‘lib kelsa, ikkinchi qismi (bular dariy tilida prefikslar) o‘zakdan anglashilgan ma’noga ega amaslikni ifodalovchi sifatlar yasab o‘zaro sinonim bo‘lib keladi. Bu holat ot turkumiga oid so‘zlardan sifat yasalishining ma’lum bir sistematik xarakterga egaligini ko‘rsatadi.

Dariy tilida o‘zakdan anglashilgan tushunchaga ega emaslik yoki tushunchaning oz darajada ekanligi *بی* *bê-*, *نا* *nâ-*, *نه* *na-*, *لا* *lâ-* va *بلا* *belâ-* prefikslari orqali ifodalanadi. Mazkur prefikslar X.Z.Alimovanning “Dariy tilida inkor prefikslari” maqolasida struktur va semantik jihatdan tekshirilgan. Quyida mavzuni yoritishda maqola materiallaridan foydalandik²³.

Hozirgi dariy tilida *بی* *bê-* prefiksi sermahsul bo‘lib, ot turkumiga oid so‘zlarga qo‘shilib keladi. U mahsuldor sifat yasovchi affiks bo‘lib, ham aniq, ham mavhum ma’noli otlarga qo‘shiladi. Bu otlar o‘z (tub dariy) va o‘zlashma so‘zlardan iborat bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda *بی* *bê-* prefiksi bilan yasalgan yasalmalarni (*بەفەйда* *bêfâyda* “befoyda”, *بەوافە* *bêwafâ* “bevafo”) *بی* *bê-* predlogining otlar bilan birikuvidan (*بەتەققوف* *bê tawaqqof* “to‘xtamasdan”, “tanaffus qilmasdan”, *بەپول* *bê pul* “pulsiz”) farqlash zarur. To‘plangan materiallar tahlili *بی* *bê-* prefiksli yasalmalarning so‘z yasalish, semantik, morfologik va sintaktik belgilari ularning sifat so‘z turkumiga oidligini ko‘rsatadi (kontekstda sifatlar ravish turkumiga o‘ta olishi e’tiborga olinsa, ularning ayrimlari ham sifat, ham ravish bo‘lib kelishi kuzatiladi: *بەجە* *bêjâ* 1) “bekorchi”, “foydasiz”, “o‘rinsiz” (sifat); 2) “bekor”(ga), “behuda”(ga); “zoe” (ravish); *بەمەورەد* *bê mawred* 1) “o‘rinsiz” (sifat); 2) “bemavrid”, “bemahal” (ravish) kabi). Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin²⁴:

<i>بی</i> <i>bê-</i> + ot modeli = 168 ta so‘z	
<i>بی</i> <i>bê-</i> + mavhum ot (tub dariy)	51
<i>بی</i> <i>bê-</i> + mavhum ot (arabiy o‘zlashma)	79
<i>بی</i> <i>bê-</i> + aniq ot (tub dariy)	36
<i>بی</i> <i>bê-</i> + aniq ot (arabiy o‘zlashma)	1 (<i>بەاولاد</i> <i>bêawlâd</i>)
<i>بی</i> <i>bê-</i> + aniq ot (yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘z)	1 (<i>بەپیلوت</i> <i>bêpilôt</i>)
<i>بی</i> <i>bê-</i> + sifat modeli = 1 ta so‘z (<i>بەھمتا</i> <i>bêhamtâ</i>)	
<i>بی</i> <i>bê-</i> + olmosh modeli = 1 ta so‘z (<i>بەخود</i> <i>bêxod</i>)	

²³ Alimova X. Dariy tilida inkor prefikslari// Sharqshunoslik, -T.:ToshDSHI, 2009-№1-2.-B.22-27.

²⁴ Jadvallardagi statistik tahlilni berishda X.Z.Alimovanning ko‘rsatilgan maqolasiga murojaat qilindi.

نا nâ- prefiksi ham mahsuldor sifat yasovchi affiks bo'lib, ot, sifat, sifatdosh, hozirgi va o'tgan zamon fe'l negizlari bilan birikadi. بی bê- prefiksidan farqli ravishda, نا nâ- ning aniq otlar bilan birikuvi deyarli qayd qilinmadi (ناکس *nâkas*, ناچسز *nâčiz*, نانسان *nâensân*, نازن *nâzan* dan tashqari):

نا nâ- + ot modeli = 44	
نا nâ- + ot (tub dariy)	20
نا nâ- + ot (arabiy o'zlashma)	24
نا nâ- + sifat modeli = 43 ta so'z	
نا nâ- + sifat (tub dariy)	30
نا nâ- + sifat (arabiy o'zlashma)	13
نا nâ- + hozirgi zamon fe'l negizi = 20 ta so'z	
نا nâ- + o'tgan zamon fe'l negizi = 3 ta so'z	
نا nâ- + hozirgi zamon sifatdoshi = 4 ta so'z	
نا nâ- + o'tgan zamon sifatdoshi = 14 ta so'z	
نا nâ- + kelasi zamon sifatdoshi = 4 ta so'z	

Yasalmalardan esa ی یâ-ye masdari) orqali mavhum otlar yasaladi (54 ta so'z uchradi).

نه na- prefiksi نا nâ- ning allomorfi sifatida qayd etiladi. Biroq bizning materialimizda نه na- prefiksining o'tgan zamon sifatdoshi bilan yasalgan 3 ta (ندانسته *nadânesta* -bilmasdan, bexosdan; ناشنیدخ *našenida gereftan* eshitmaslikka olmoq, نتراشیده *natarâšida* -soch-soqoli olinmagan; tarashlanmagan), kelasi zamon sifatdoshi bilan yasalgan 2 ta (نپذیرفتنی *napaziroftani* -to'g'ri (muvofig) kelmaydigan, نمردنی *namôrdani* -o'lmas) va qisqartirilgan infinitiv bilan birikuvidan 1 ta (نوبد *nâbud* -yo'qlik, nomavjud) misol uchradi.

Dariy tilida arab tilidan o'zlashgan لا lâ- va بلا belâ- (لا lâ- inkor yuklamasining بی bi- predlogi bilan birikmasi) inkor prefikslari mavjud bo'lib, arab sifatdosh va masdarlari bilan birikib, sifat va ravish yasaydi.

Ba'zan ularning tub dariy so'zlari bilan birikkan shakllarini uchratish mumkin: لاچار *lâčâr* -nochor, بلادرنگ *belâdarang* -kechiktirmasdan, tezda kabi.

Kuzatishlar dariy tili leksikasida لا lâ- prefiksiga nisbatan بلا belâ- prefiksi bilan yasalgan so'zlar ko'pligini ko'rsatadi.

لا lâ- ot (arabiy o'zlashma) – 10, لا lâ- + ot (tub dariy) – 1 (ناچار = lâčâr لاچار nâčâr)
لا lâ- + sifat (arabiy o'zlashma) – 1 (لاممکن lâmomken)
لا lâ- + son (arabiy o'zlashmalar) – 1 (لہائی lâsâni = ہمتا bêhamtâ)
بلا belâ- + ot (arabiy o'zlashma) – 16, بلا belâ- + ot (tub dariy) – 1 (بلادرنگ belâbarang)

Tahlillar نا nâ- prefiksi otlarga qo'shilib o'zakdan anglashilgan tushunchaga ega emaslikni ifodalaganda, ba'zan بی bê- prefiksi bilan o'zaro sinonimik munosabatini ko'rsatdi: بی قرار *bêqarâr* = نا قرار *nâqarâr* –tinch (tek) tura

olmaydigan, bezovta, betinch; tashvishli, بی انصاف *bêensâf* = ناانصاف *nâensâf* noinsof, insofsiz; ba'zan sinonimik qatorni tashkil etgan so'zlarning birida ma'no kengayishi ro'y bergan: *bêxodâ* -dahriy – ناخدا *nâxodâ* 1) dahriy; 2) vahshiy, badkirdor, بی کاره *bêkâra* 1) uquvi yo'q; foydasiz (odam), 2) keraksiz ((narsa); masalan, چیزهای بیکاره *čizhâ-ye bêkâra* eski-tuski, lash-lush) – نا کاره *nâkâra* (shuningdek, بی کاره و ناکاره *nâkârawobêkâra*) 1) qo'lidan ish kelmaydigan; foydasiz, keraksiz (odam); 2) befarosat, kalvak.

Misollarimizda *nâ-* va *lâ-* prefikslari birgina misolda o'zaro sinonim bo'lib keldi: لاچار *lâčâr* = ناچار *nâčâr* -nochor.

Bir yasovchi asosga har xil inkor prefikslarining qo'shiluvidan boshqa-boshqa ma'noli yasalmalar hosil bo'lishi kuzatiladi: ناعلاج *nâelâj*- noiloj; majburan, biroq لا علاج *lâ'elâj* -bedavo, tuzatib bo'lmaydigan, بی کار *bêkâr* -ishsiz* - نا کار *nâkâr*- foydasiz*, بی کس *bêkas* -kimsasiz – نا کس *nâkas* -nokas, بیزن *bêzan* -bo'ydoq – نا زن *nâzan*- nokas* (ayol haqida), بی چیز *bêčiz* -kambag'al – نا چیز *nâčiz* -ozgina; arzimas. Yasalmalarning biri to'g'ri, ikkinchisi ko'chma ma'noda qo'llangani sababli yasovchi affikslar o'zaro sinonimik munosabatda bo'la olmaydi.

Quyidagi jadvalda tahlilga tortilgan *bê-*, *nâ-*, *na-*, *lâ-* va *belâ-* prefikslari ishtirokidagi yasalmalarning foizli nisbatini kuzatish mumkin:

بی <i>bê-</i>	170 ta so'z	50,3 %
نا <i>nâ-</i>	132 ta so'z	39,1 %
بلا <i>belâ-</i>	17 ta so'z	5 %
لا <i>lâ-</i>	13 ta so'z	3,8 %
نه <i>na-</i>	4 ta so'z	1,8 %

Biroq hozirgi dariy tilida ularning qo'llanilish darajasi bir xil emas. 90000 belgidan iborat matn tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

نا <i>nâ-</i>	40 ta so'z	62,5 %
بی <i>bê-</i>	23 ta so'z	35,94 %
نه <i>na-</i>	1 ta so'z	1,56 %
لا <i>lâ-</i>	0	0 %
بلا <i>belâ-</i>	0	0 %

Keltirilgan raqamlar hozirgi dariy tilida *bê-*, *nâ-* –mahsuldor, *na-* – kammahsul, *lâ-* va *belâ-* – mahsulsiz prefikslar ekanligini bildiradi. *lâ-* va *belâ-* inkor prefikslari uzoq asrlar davomida arab so'zlari orqali o'zlashgan va noizchil affikslar hisoblanadi. *nâ-* prefiksining *bê-* ga nisbatan yuqori valentligi esa uning mahsuldorlik darajasini oshiradi. Sifatlarga xos xususiyat otlardan farqli ravishda prefiksatsiya usuli orqali so'z yasallashining mahsuldorligidir. Tahlil qilingan prefikslar semantik jihatdan bir xil, ya'ni o'zakdan anglashilgan tushunchaga ega emaslikni, biror belgi yoki xususiyatning yo'qligini, inkorni anglatadi. Biroq ularning o'zaro sinonimik munosabatga

kirishuvi – biri o‘rnida ikkinchisining qo‘llanishi kam uchraydigan hodisa sifatida baholanadi.

2.2. Asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiruvchi sifat yasovchi sinonim suffikslar

Ismiy gap bo‘laklarini yasash usullarini ko‘rib chiqishdan avval, ot va sifatlarning strukturaviy tiplarini xarakterlash lozim. Yu.A.Rubinchik morfologik struktura bo‘yicha ot va sifatlarni, 1) sodda, 2) yasama, 3) yarimaffiksal, 4) murakkab yasamalarga bo‘ladi²⁵.

Dariy tilida, otlarda bo‘lganidek, sifatlarda ham affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan so‘z yasash faol va mahsuldor usul hisoblanadi.

Yasama sifatlarda ko‘pincha ot va fe‘l negizlariga maxsus sifat yasovchi affikslarni qo‘shishi bilan yasaladi²⁶.

1. **ی - gi / وی - wi** (yâ-ye nisbat) nisbiy sifat yasovchi suffiks bo‘lib sermahsul qo‘llaniluvchi qo‘shimchadir.

Masalan: دیواری *dêwâri* “devoriy” (*dêwâr* “devor”);

ابریشمی *abrišomi* “ipakli”, “ipakdan qilingan” (*abrišom* “ipak”, “mato”);

نقره ای *noyrei* “kumushga oid” (*noyre* “kumush”);

خانگی *xânagi* “xonagi”, “uyga oid” (*xâna* “uy”);

معنوی *ma’nawi* “ma’naviy” (*ma’nâ va ma’ni* “ma’no”, “mazmun”);

ذروی *zarrawi* “atom/ga oid” (*zarra* “atom”, “molekula”).

2. **ناک - nâk** otdan sifat yasovchi suffiks.

Masalan: خطرناک *xatarnâk* “xavfli” (*xatar* “xavf”, “xatar”);

نامناک *namnâk* “mayin” (*nam* “nam”);

غمناک *ğamnâk* “g’amnok” (*ğam* “g’am”);

آبناک *âbnâk* “suvli”, “sersuv” (*âb* “suv”);

وحشتناک *wahšatnâk* “dahshatli” (*wahšat* “dahshat”, “qo‘rqinch”).

3. **مند - mand**

نیرومند *nirumand* “kuchli” (*niru* “kuch”, “g’ayrat”);

خردمند *xeradmand* “aqilli” (*xerad* “aql”, “zakovat”);

آبرومند *âbrumand* “to’g’ri”, “ishonchli” (*âbru* “g’urur”);

سودمند *sudmand* “foydali” (*sud* “foyda”);

ثروتمند *sarvatmand* “boy” (*sarvat* “boylik”);

دانشمند *dāneshmand* “olim”, “donishmand” (*dānesh* “bilim”);

هنرمند *honarmand* “hunarmand”, “mohir”, “artist” (*honar* “hunar”, “san’at”, “mohirlik”);

شکوهمند *šokôhmand* “tananali”, “dabdabali”, “serhasham” (*šokôh* “hashamatlilik”, “shukuh”, “dabdaba”).

4. **گین - gin / آگین - âgin**

خشمگین *xašmgin* “jahildor”, “badjahil” (*xašm* “jahil”);

غمگین *ğamgin* “g’amgin”, “xafa” (*ğam* “g’am”, “qayg’u”);

عطرآگین *atrâgin* “xushbo’y”, “muattar” (*atr* “xushbo’y is”, “atr”).

²⁵ Рубинчик Ю.А. “Грамматика современного персидского языка” М. 2009

²⁶ Alimova X.Z. Dariy tili morfologiya. - Tosh. 2008. - S.26.

5. -in

بلورین *bollurin* “billurli” (بلور *bollur* “billur”);
زمردين *zomoriddin* “zumradli” (زمرد *zomorrad* “zumrad”);
خونين *xunin* “qonli” (خون *xun* “qon”);
آهني *âhanin* “temirli”, “temirga oid” (آهن *âhan* “temir”);
زرين *zarrin* “zarrin”, “tilloli” (زر *zar* “oltin”);
سنگين *sangin* “og’ir” (سنگ *sang* “tosh”);
چرمين *čarmin* “charm/ga oid/” (چرم *čarm* “charm”);
رنگين *rangin* “rangli” (رنگ *rang* “rang”);
آتشين *âtašin* “otashin” (آتش *âtaš* “olov”, “otash”).

6. -âne/-âna/ گانه -gâna/ يانه -yâna

دوستانه *dustâna* “do’stona”, “do’stlarcha” (دوست *dust* “do’st”);
بچه گانه *bačagâna* “bolalarcha” (بچه *bača* “bola”);
مردانه *mardâna* “mardonavor”, “mardlarcha” (مرد *mard* “erkak kishi”);
زنانه *zanâna* “ayollarga xos”, “ayollarcha” (زن *zan* “ayol”);
دوستانه *dôstâna* “do’stona” (دوست *dôst* “do’st”).

7. -wâr

اميدوار *omaydwâr* “umidvor” (اميد *omayd va omêd* “umid”);
ماهوار *mâhwâr* “oylik” (ماه *mâh* “oy”).

8. -gun

گلگون *golgun* “gulgun”, “gulga o’xshash”, “qizil” (گل *gol* “gul”);
لعلگون *la’lgun* “la’li”, “yoqutday” (لعل *la’l* “yoqut”);
گندمگون *gandomgun* “bug’doy rang” (گندم *gandom* “bug’doy”).

9. -war

نامور *nâmwar* “mashhur” (نام *nâm* “nom”).

O’rta fors tilidan qolgan -ur formasi ham uchrab turadi:

رنجور *ranjur* “kasal”, “bemajol”, “azob-uqubat tortuvchi”, “jafokash” (رنج *ranj* “qiyinchilik”, “dard”, “alam”).

10. -ôk/-endôk/ وک -ôk/ -u

گپوک *gapôk* “sergap”, “ezma” (گپ *gap* “nutq”, “so’z”, “gap”);
خوابوک *xâbôk* “uyquchi” (خواب *xâb* “uyqu”);

ترسو *tarsu* – ترسوک *tasôk* – ترسندوک *tarsendôk* “qo’rqoq” (ترس *tars* “qo’rqinch”);

شرموک *šarmôk* – شرمندوک *šarmendôk* “uyatchan” /uyatchang/ (شرم *šarm* “uyat”).

11. -ina

شبينه *šabina* “tungi” (شب *šab* “tun”);

سبزينه *sabzina* “qorachadan kelgan” (سبز *sabz* “yashil”, “qoracha”, “bug’doy rang” (teri haqida)).

12. -âsâ

برق آسا *barqâsâ* “yashinday” (برق *barq* “yashin”);

سيل آسا *sêlâsâ* “selday” (سيل *sêl* “sel”).

13. -sân

فيلسان *filsân* “filday”, “filga o’xshash” (فيل *fil* “fil”);

يکسان *yaksân* “bir xil”, “baravar”, “birdek” (يک *yak* “bir”).

14. وش -waš

پريوش *pariwaš* “pariday”, “pariga o‘xshash” (پري *pari* “pari”);
ماه وش *mâhwaš* – مهوش *mahwaš* “oydek”, “oysimon”, “hilola” (ماه *mâh* “oy”).

15. فام -fâm

نقره فام *noqrafâm* “kumushdek”, “kumushsimon” (نقره *noqra* “kumush”);
گلغام *golfâm* “gulga o‘xshash”, “pushti rang”, “qizg‘ish” (گل *gol* “gul”).

16. ه -a

رنگه *ranga* “rangli” (رنگ *rang* “rang”);
سبز ه *sabza* “qoracha”, “bug‘doy rang” (سبز *sabz* “yashil”)

2.3. Sinonim affikslarning statistik tahlili

Affiksal sinonimik qatorlar tahlilidan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, dariy tilida ko‘plab sinonim qo‘shimchalar mavjud bo‘lib, affiksal sinonimiya hodisasi dariy tilida hali yetarlicha tadqiq etilmagani bois ularni yoppasiga olib o‘rganishning ma‘lum murakkab tomonlari borligini ko‘rsatadi. Sinonim affikslarni yoppasiga olib, sinonimik guruh sifatida tahlil qilish qo‘shimchalardagi sinonimik munosabatning ko‘proq qaysi turkum doirasida uchrashi kabi masalalarni aniqlashni ancha qiyinlashtiradi. Lekin bu sinonim qo‘shimchlarni yoppasiga olib o‘rganganda, aniq xulosalar chiqarish mumkin bo‘lmaydi, degan gap emas. Tahlil qilingan sinonimik qatordagi sinonim affikslarning miqdori hisoblab chiqilganda, dariy tilida otlarning 24 ta, sifatlarning esa 22 ta sinonim qo‘shimchalar yordamida yasalishi aniqlandi. Affikslar o‘rtasidagi sinonimik munosabatlarning nisbati o‘rtasida anchagina farq bor, sinonimik qatorlarni ularni tashkil etgan qo‘shimchalar sonidan kelib chiqib hisoblaganda, quyidagi natija kelib chiqadi:

Shaxs oti yasovchi 8 ta affiks yordamida yasalgan jami 243 ta shaxs oti aniqlandi		
کار	84 ta so‘z	35 %
گر	83 ta so‘z	34 %
نده	36 ta so‘z	15 %
گار	15 ta so‘z	6 %
بان	12 ta so‘z	5%
یا ی نسبت	10 ta so‘z	4 %
وان	3 ta so‘z	1 %
والا	misol uchramadi	0 %

O‘rin-joy oti yasovchi 7 ta affiks yordamida yasalgan jami 57 ta o‘rin-joy oti aniqlandi		
ستان	28 ta so‘z	49 %
زار	12 ta so‘z	20 %
لاخ	5 ta so‘z	9 %
سار	5 ta so‘z	9 %

سن	3 ta soʻz	5 %
شن	2 ta soʻz	4 %
بر	2 ta soʻz	4 %

Narsa-buyum oti yasovchi 5 ta affiks yordamida yasalgan jami 85 ta narsa-buyum oti aniqlandi		
ه	32 ta soʻz	38 %
ک	30 ta soʻz	35 %
دان	20 ta soʻz	24 %
گک	2 ta soʻz	2 %
دانی	1 ta soʻz	1 %
Mavhum ot yasovchi 4 ta affiks yordamida yasalgan jami 79 ta mavhum oti aniqlandi		
ی	40 ta soʻz	51 %
ش	25 ta soʻz	32 %
ه	12 ta soʻz	15 %
یت	2 ta soʻz	2 %

Asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni bildiruvchi sifat yasovchi prefikslar yordamida yasalgan 336 ta soʻz aniqlandi		
bê- بی	170 ta soʻz	50,3 %
nâ- نا	132 ta soʻz	39,1 %
belâ- بلا	17 ta soʻz	5 %
lâ- لا	13 ta soʻz	3,8 %
na- نه	4 ta soʻz	1,8 %

Asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiruvchi sifat yasovchi prefikslar yordamida yasalgan 318 ta soʻz aniqlandi		
wi- وی / gi- گى / i- ی	150 ta soʻz	47 %
mand – مند	32 ta soʻz	10 %
in- ين	28 ta soʻz	9 %
âna/ گانه - gâna/ يانه - yâna	25 ta soʻz	8 %
nâk- ناک	18 ta soʻz	6 %
gun- گون	12 ta soʻz	4 %
u- و / endôk- ندوک / ôk- وک	8 ta soʻz	3 %

وار - <i>wâr</i>	7 ta soʻz	2 %
ينه - <i>ina</i>	6 ta soʻz	2 %
آسا - <i>âsâ</i>	5 ta soʻz	2 %
ه - <i>a</i>	5 ta soʻz	2 %
آگین/ <i>gin</i> - گین	4 ta soʻz	1 %
ور - <i>war</i>	4 ta soʻz	1 %
وش - <i>waš</i>	5 ta soʻz	1 %
فام - <i>fâm</i>	4 ta soʻz	1 %
سان - <i>sân</i>	4 ta soʻz	1 %

XULOSA

Sinonimiya hodisasini atroflicha oʻrganish hamma davrlar tilshunosligining ham eng muhim masalalaridan biri boʻlib kelgan. Sinonimlarning amaliy ahamiyati juda katta boʻlib, birinchi navbatda u yoki bu tilning qay darajada boy ekanligini, rivojlanganligini belgilasa, ikkinchidan, badiiy adabiyotda, umuman nutqda taʼsirchanlikni, rang-baranglikni taʼminlaydi.

Tilshunoslikda sininimiya hodisasini oʻrganish borasida anchagina ishlar qilingan. Biroq eng koʻp ish asosan lugʻaviy sinonimlarni oʻrganishga bagʻishlangan.

Affikslar agar har xil turkumdagi soʻzlarga qoʻshilib, har xil funktsiyani bajarsa va shunga koʻra, har xil maʼnolarni ifodalasa, bunday formalar omoaffikslar sifatida qaralishi kerak. Agar bir turkumdagi soʻzlarga qoʻshilib kelib, har xil funktsiyani bajarmasa va har xil maʼnolarni ifodalasa, bu polisemantik affiks sanaladi.

Affikslarning antonimik va sinonimik munosabatlarini tekshirganda ham, ularning mahsulli-mahsulsizlik xususiyatlarini belgilaganda ham yuqoridagi holatlarga alohida e'tibor qilish lozim.

BMIda dariy tilida ot va sifat yasallishida sinonim affikslar ko'rib chiqildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

Ot yasovchi affikslarni, ularning qanday otlar yasahsiga qarab to'rt gruppaga ajratamiz: a/ shaxs otlari yasovchilar; b/ narsa-qurol otlari yasovchilar; d/ o'rin-joy otlari yasovchilar; e/ mavhum otlar yasovchilar.

Dariy tilining keyingi taraqqiyotida kasb-hunarni bildiruvchi shaxs otlari, shubhasiz, deyarli **کار** -*kâr* suffiksi orqali yasalmogda. Bu, bir tomondan, uning valentlik darajasi (so'z yasallish asosi vazifasida aniq va mavhum ot, sifat, sifatdosh kela oladi), ikkinchi tomondan, **کار** *kâr* "ish" so'ziga omonimligi bilan izohlanadi. **کار** -*kâr* suffiksi **گر** -*gar* ga nisbatan universal yasovchi: shaxslarni nafaqat mehnat faoliyatiga ko'ra tavsiflaydi, balki asosdan anglashilgan turli mehnat quroli otlaridan shu predmet bilan ish ko'ruvchi shaxs otlari yasaydi (**گر** -*gar* ishtirokida bunday so'z yasallish tipi mahsulsiz).

گار -*gâr*//*-egâr* suffiksi kammahsul. Uning ishtirokidagi yasalmalar ko'proq sifat turkumiga oid, so'z yasallish asosi fe'l negizi bo'lganda, ba'zan sifatdosh ma'nosini kasb etadi. So'z yasallish ma'nosining boshqa vositalar bilan ifodalanish imkoniyati, bir tipdagi so'zlarni yasash uchun **کار** -*kâr* va **گر** -*gar* suffikslarining ham qo'llanilishi **گار** -*gâr*//*-egâr* orqali so'z yasallishida cheklanish bo'lishiga olib keladi.

گر -*gar* suffiksi ko'p ma'noli va turli xil shaxs otini ifodalaydigan so'z yasovchidir. Biroq uning ishtirokida asosan mavhum otlardan so'z yasallayotgani so'z yasallish asosi bilan bog'liq cheklanishni ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatilgan tafovutlarga qaramay, **گر** -*gar* va **گار** -*gâr*, **گر** -*gar* va **کار** -*kâr*, **گار** -*gâr* va **کار** -*kâr* suffikslarining parallel qo'llanish holati uchraydi: **ستمگار** *setamgar* = **ستمگار** *setamgâr* "zolim", "sitamgar", **فریبگار** *ferêbgar* = **فریبگار** *ferêbgâr* "firibgar", "yolg'onchi"; **خدمتگار** *xedmatgar* = **خدمتگار** *xedmatgâr* "xizmatkor"; "xizmatchi", **تجاوزگار** *tajâwozgar* = **تجاوزگار** *tajâwozgâr* "tajovuzkor", "bosqinchi". Ba'zan dariycha va forsha lug'atlarda bir so'z yasallish asosi orqali yasalgan turli variantlar kuzatiladi: **اغماضگار** *eymâzgar* (dariy tilida) = **اغماضگار** *eymâzkâr* (fors tilida) "ko'ngilchan", "nojo'ya ishlarga beparvo", **پرهیزگار** *par(h)êzgar* (dariy tilida) = **پرهیزگار** *par(h)êzkâr* (fors tilida) 1) "o'zini (nafsini) tiygan", 2) "zohidona hayot kechiruvchi", 3) "taqvodor". Shuningdek, ular ishtirokida turli ma'no ifodalanishi ham mumkin: **کاشیگر** *kâšigar* "koshin", "kafel ishlab chiqaruvchi", biroq **کاشی** *kâšikâr* "koshin, kafel teruvchi" (*koshinkor*)²⁷.

نده -*enda* suffiksi – mahsuldor yasovchi, hozirgi zamon negiziga qo'shilib, hozirgi zamon sifatdoshi yasaydi. Biroq hosilalar sifat yoki ot (shaxs oti) ma'nosini kasb etadi (**بافنده** *bâfenda* "to'quvchi", **فروشنده** *forôšenda* "sotuvchi", **خواننده** *xânenda* "kitobxon"). **نده** -*enda* suffiksli hozirgi zamon sifatdoshining fe'ldan anglashilgan harakatni bajaruvchi, shu harakatga tortiluvchi shaxsni ifodalash xususiyati uning

²⁷ Qarang: Чхеидзе Т.Д. Именное словообразование в персидском языке. -Тбилиси: Месниереба, 1969. – с.22.

mahsuldorlik darajasini belgilaydi. Yasalmalar tarjima lugʻatlarida qayd qilinmasa-da, nutq jarayonida ularning yasash imkoniyati cheksiz. Bu hol soʻz yasash asosi, uning «tanlanishi» bilan izohlanadi.

چی *-či* suffiksi turkiy oʻzlashmalar bilan bir qatorda, dariy tilining oʻz va oʻzlashgan soʻzlaridan ham shaxs otlari yasaydi. Biroq u kammahsul – hozirgi vaqtda yangi soʻz yaratishda kam ishtirok etadi. Materiallar tahlili hozirgi dariy tilida **چی** *-či* suffiksi ishtirokidagi yasalmalarning baʼzilari dariy tilining oʻz yasovchilari bilan ham parallel qoʻllanilishini koʻrsatadi (*طبل زن* *tablči* = *طبل زن* *tablzan* “barabanchi”, *ویلون نواز* *wailonči* = *waylonnawâz* “skripkachi”, *سموارچی* *samâwârči* = *čapâwalgar* “talonchi”, *چاپول گر* *čapâwalči* = *čapâwalgar* “talonchi”, *سمواری* *samâwâri* “choyxonachi” *قچاقچی* *qâčâqči* = *qâčâqi* “kontrabandist”, *تماشاچین* *tamâšâbin* = *tamâšâči* “ovchi”, *شکاری* *šekârči* = *šekâri* “ovchi”, *تماشاچین* *tamâšâbin* = *tamâšâči* “tomoshabin”). Bu esa tilning keyingi taraqqiyotida **چی** *-či* suffiksining kammahsullik darajasi saqlanib qolishini bildiradi.

وان *-wân* suffiksi hozirgi dariy tilida kammahsul yasovchi va yasalmalarning aksariyati qadimiy leksikadan iborat. Bu suffiks “himoya (muhofaza) qiluvchi”, “qoʻriqlovchi”, “saqlovchi” maʼnosiga ega va bu xususiyati soʻz yasash asosi bilan bogʻliq katta cheklanishni koʻrsatadi. Asosdan anglashilgan yuk tashish vositasini haydab boruvchi shaxs maʼnosida **وان** *-wân* suffiksi va **ران** *-rân* (*راندن* *rândan* “haydamoq” feʼlining hozirgi zamon negizi) yarimaffiksining parallel qoʻllanilishi kabi holatlar (*طیاره ران* *tayârawân* = *tayârarân* “uchuvchi”, “pilot” *طیاره* *tayâra* “samolyot”), **کراچی وان** *karâči-wân* = *karâčirân* “aravakash”, “izvoshchi” (*کراچی* *karâči* “arava”) mazkur suffiksning soʻz yasash imkoniyatini cheklaydi.

والا *-wâlâ* suffiksi oʻtgan asrning 60-yillarida sermahsul affikslar qatoriga kiritilgan boʻlsa-da, hozirgi adabiy dariy tilida kammahsul yasovchi sanaladi. Uning ishtirokidagi yasalmalarning boshqa soʻz yasash vositalari bilan parallel qoʻllanilishi (*دکان وال* *dokânwâlâ* = *dokândâr* “doʻkondor”, “baqqol”, *شیر وال* *širwâlâ* = *širforôš* “sut sotuvchi”, *خانہ وال* *xâna-wâlâ* = *sâheb(e)xâna* “uy sohibi”, “uy egasi”) mazkur suffiksning adabiy tilda soʻz yasash imkoniyatini cheklaydi. Biroq kobul lahjasida **والا** *-wâlâ* suffiksi keng qoʻllanilish doirasiga ega. Bu hol suffiksning maʼnolari va valentlik darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi²⁸.

Dariy tili lugʻat tarkibining yangi-yangi birliklar bilan toʻlib, boyib borishida **ی** *-i* suffiksining alohida oʻrni bor: u cheksiz valentlikka ega va bu sifatlarga xos kategorial maʼno bilan izohlanadi. Hozirgi adabiy dariy tilida **ی** *-i* suffiksining funktsiya doirasi yanada kengaydi: uning shaxs oti vazifasida qoʻllanilishi faollashdi (*غیچکی* *ğêčaki* “ovchi” *شکاری* *šekârči* = *šekâri* “ovchi”, *بندی* *bandi* “asir”, “mahbus”, *جوالی* *jawâli* “hammol”, “yuk tashuvchi”, *برقی* *barqi* “elektrik”; “elektromontyor”). Uning ishtirokidagi yasalmalarning boshqa soʻz yasash vositalari bilan parallel qoʻllanilishi kuzatiladi: **شکاری** *šekârči* = *šekâri* “ovchi”.

²⁸ Bu haqda qarang: Dariy tilida **وان** *-wân* va **والا** *-wâlâ* suffikslarining semantik xususiyatlari // Sharqshunoslar anjumani. – Toshkent, 2009. – №2. – B.10-15.

Shu narsa xarakterliki, ot yasovshi affikslar faqat ot turkumiagi soʻzlardan ot turkumiga oid soʻzlar yasalgandagina oʻzaro sinonimik munosabatda boʻla olishi mumkin. Boshqa soʻz turkumlaridan ot turkumiga oid soʻzlar yasalganda, ot yasovchi affikslar sinonimik munosabatga kirisha olmaydi. Agar shu nuqtayi nazardan qaraydigan boʻlsak, otlarda faqat shaxs otlari yasovchi affikslargina oʻzaro sinonimik munosabatda boʻlib,

Oʻrin-joy otlari yasovchilar qisman sinonimik munosabatga kirishadi. Mavhum otlar yasovchilar hamda narsa-qurol otlari yasovchilar oʻzaro sinonim boʻlib kela olmaydi. Buning asosiy sababi, dariy tilida a/ narsa-qurol otlari yasovchi affikslarning koʻp maʼnoli emasligi; b/ **mavhum otlar yasovchi affikslarning esa, avvalo, kamligidir.**

Soʻzlar kabi affikslarning oʻzaro sinonim boʻlib kelishida ham bir tilga boshqa tillardan affikslarning oʻzlashishi va affikslarning koʻp maʼnoliligi asosiy shartlardan biridir. Maʼlumki, tilda soʻz yasovchi affikslarning oʻzlashishi xarakterli boʻlib, shakl yasovchi affikslar deyarli oʻzlashmaydi, yaʼni bir tildan ikkinchi tilga asosan soʻz yasovchilargina oʻtadi.

Tahlillar نا nâ- prefiksi otlarga qoʻshilib oʻzakdan anglashilgan tushunchaga ega emaslikni ifodalaganda, baʼzan بی bê- prefiksi bilan oʻzaro sinonimik munosabatini koʻrsatdi: بی قرار *bêqarâr* = نا قرار *nâqarâr* –tinch (tek) tura olmaydigan, bezovta, betinch; بی انصاف *bêensâf* = نا انصاف *nâensâf* noinsof, insofsiz; baʼzan sinonimik qatorni tashkil etgan soʻzlarning birida maʼno kengayishi roʻy bergan: بی خدا *bêxodâ* –dahriy – نا خدا *nâxodâ* 1) dahriy; 2) vahshiy, badkirdor, بی کاره *bêkâra* 1) uquvi yoʻq; foydasiz (odam), 2) keraksiz ((narsa); masalan, بی کاره چیزهای *čizhâ-ye bêkâra* eski-tuski, lash-lush) – نا کاره *nâkâra* (shuningdek, بی کاره و ناکاره *nâkârawobêkâra*) 1) qoʻlidan ish kelmaydigan; foydasiz, keraksiz (odam); 2) befarosat, kalvak.

Misollarimizda نا nâ- va لا lâ- prefikslari birgina misolda oʻzaro sinonim boʻlib keldi: لاچار *lâčâr* = ناچار *nâčâr* –nochor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алимova X.. Значения суффикса چى -čī в языке дари // Востоковедение. – Т.: ТашГИВ, 2008. – № 1-2. – С. 104-107.
2. Alimova X. Dariy tilida گر -gar suffiksi vositasida yasalgan soʻzlarning semantik tasnifi // Eron-afgʻon filologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent, 2009. – B. 63-71.
3. Alimova X. Dariy tilida inkor prefikslari // Sharqshunoslik. – T.: ToshDSHI, 2009. – № 1-2. – B. 22-27.
4. Alimova X. Dariy tilida بان -bân / وان -wân va والا -wâlâ suffikslarining semantik xususiyatlari // Sharqshunoslik anjumani. – Toshkent, 2009. – №2. – B. 10-15.
5. Alimova X. Dariy tilida نده -enda suffiksli sifatdoshlarning semantikasi // Oʻzbek sharqshunosligi: buguni va ertasi. – T.: ToshDSHI, 2010. – B. 82-85.
6. Alimova X. ی -i suffiksi vositasida yasalgan nisbiy sifatlarning semantik tasnifi // Sharqshunoslik. – T.: ToshDSHI, 2010. – № 1. – B. 22-29.
7. Alimova X. Dariy tilida shaxs oti ysalishida mahsulli-mahsulsizlik va soʻz yasash imkoniyati (affiksali usul misolida) // Eroniy tillarning leksikologiyasi. – Toshkent, 2010. – B. 28-39.
8. Alimova X. Dariy tilida -ak/-gak suffiksi va uning soʻz yasash imkoniyati// Sharqshunoslar anjumani. – Toshkent, 2011. – №6. – B. 3-11.
9. Alimova X. Dariy tili morfologiyasi.- Toshkent, 2008 –B. 26-29.
10. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с.
11. Ахмеджанова Н.А. Словообразование имен существительных и прилагательных в современном литературном персидском языке: Автореф. дис. ...канд. фил. наук.– Ташкент, 1956. – 16 с.
12. Киселева Л.Н. Очерки по лексикологии языка дари. – М.: Наука, 1973. – 152 с.
13. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.: Наука, 1985. – 128 с.
14. Кубрякова Е.С. Что такое словообразование. – М.: Наука, 1965. - 80 с.
15. Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Изд. ИМО, 1959. – 411 с.
16. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд. МГУ, 1973. – 199 с.
17. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Изд. МГУ, 1975. – 206 с.
18. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. – 600 с.
19. Таджиев Ё. Аффиксальная синонимия в узбекском языке: Автореф. дис. ...докт. фил. наук.– Ташкент, 1991. – 48 с.
20. Чхеидзе Т.Д. Именное словообразование в персидском языке. – Тбилиси: Мецниереба, 1969. – 141 с.
21. Oʻzbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. – T.: Fan, 1975. – 612 b.

22. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – T.: “O'qituvchi” NMIU, 2007. – 168 b.
23. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.

24. نگهت سعیدی م.ن. دستور زبان معاصر دری. - کابل، 1969

Internet saytlari:

1. www.wikipedia.org
2. www.kabulnath.de
3. www.rushnoi.com
4. www.farsi.ru
5. www.raziqfaani.com
6. www.pajhwok.com
7. www.zhwak.com
8. www.rawzana.com
9. www.ppazhwak.hozhaber.com
10. www.afghanasamai.com
11. www.nai.com
12. www.ayanda.org
13. www.afghana.com